



Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz



@Jadidrasmiy



@Jadid_uz

SIYOSAT

TURKIY DUNYO VA

TURKISTON SAMMITI



Turkiy davlatlar tashkiloti faoliyatida yangi burilish nuqtasi sifatida Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 3-sentyabr kuni Qirg'izistonning Cho'lpon-Ota shahrida bo'lib o'tgan turkiy tilli davlatlar VI sammitida faxriy mehmon sifatida ishtirok etganini qayd etish mumkin. Bu qadam tashkilot rivojiga yangi turki berdi.

2019-yilda respublika Naxichevan bitimini ratifikatsiya qilib, TDT faoliyatidagi to'laqonli ishtirokini rasman mustahkamladi. Bu tashkilot faoliyatiga yangi hayot bag'ishladi. Bugun Turkiston shahrida Turkiy davlatlar tashkilotining (TDT) navbatdagi norasmiy sammiti boshlanadi.

(Davomi 3-sahifada.)

FAKT

✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Osiyo xotin-qizlarining ikkinchi forumi ishtirokchilariga murojaat yo'lladi.

✓ 18-20-may kunlari ilk marotaba Toshkent shahrida "Musiqqa ta'limi: jahon miqyosida yagona maydon sari" mavzusida yirik xalqaro forum bo'lib o'tadi.

✓ Yaponiyaning mashhur "The Global Train Journey" teleloyihasi ijodiy jamoasi O'zbekiston haqida hujjatli dastur suratga olmoqda.

✓ "ACWA" kompaniyasining mamlakatimizdagi rahbari Jon Zaidi O'zbekiston "yashil" energetika sohasida dunyoga namuna bo'layotganini e'tirof etdi.

(Davomi 4-sahifada.)

KITOB VA JAMIYAT

KITOB KELTIRGAN BAXT

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi direktori, "Mehnat shuhrati" ordeni sohibasi Umida TESHABOYEVA bilan suhbat



– Umida opa, kelgusi haftada mamlakatimizda "21-may – Kutubxonachilar kuni" nishonlanadi. Avvalo, kasb bayrami bilan tahririyatimiz nomidan tabriklaymiz! Alohida sananing belgilanishi ushbu soha vakillarining davlat va jamiyat hayotidagi muhim rolini anglatadi. Sizning bu sohaga kirib kelishingiz qanday bo'lgan?

– E'tibor uchun tashakkur! Endi-endi o'ylasam, mening peshonamga kutubxonachi bo'lish yozilgan ekan. Bugun respublikadagi eng yirik kutubxonada rahbarman. Ammo bu yerga tasodifan kelib qolmaganman. Talabalikdan kutubxonaga ishga kirganman. Sohani eng quyi tizimdan boshlab o'rgandim. Kutubxonadan boshqa joyda faoliyat yuritmadim. Men kutubxonachilikni tanlaganimdan faxrlanaman. Ammo doim ham shunday bo'lgan, deya olmayman...

Istiqlolning dastlabki davrida sohamizga e'tibor yetarli bo'lmadi. Kutubxonalarning moddiy-texnik bazasi g'ariblashdi, o'n minglab fondi bilan u binodan bunisiga ko'chib yurgan holatlar bo'ldi. Kutubxonachilarning maoshini birovga aytishga xijolat bo'lardi odam. Shunda ham ular ishni tashlab ketmadi, sabr-toqat bilan vazifasining ma'naviy foydasini o'ylab, shundan taskin topib yashadi. Bu dargohda kitobni sevadiganlar qoldi. Biz tushunishga harakat qildik: yosh davlatga kutubxonadan ko'ra iqtisodiyot, mudofaa va boshqa sohalar muhimroq, deb.

(Davomi 5-sahifada.)

VATAN MANZUMASI

Abdusaid KO'CHIMOV

JAVOB

Bir nihol ekingmi Vatan bog'iga,
Mehringni to'kdingmi cho'l, yantog'iga,
Gullarga chang-g'ubor qo'ngan chog'ida
Arta biloldingmi chang-u g'uborni –
Desalar, yurtdoshim, javobing bormi?

Bitta g'isht qo'ydingmi maydonlariga,
Bir vassa o'ydingmi ayvonlariga,
Bir misra qo'shdingmi dostonlariga,
Kurab tashladingmi tomlardan qorni –
Desalar, yurtdoshim, javobing bormi?

Kimdir uzib ketsa dilbar gullarni,
Kimdir buzib ketsa sarvar yo'llarni,
Kimdir ezib ketsa muztar dillarni,
Duosin oldingmi mehrga zorni –
Desalar, yurtdoshim, javobing bormi?

Urush-janjallarga xamirturushlar,
Illatfurushlar-u, millatfurushlar,
Affif osmoningga qilsa xurujlar,
Hosud haqirlarga tikdingmi dorni –
Desalar, yurtdoshim, javobing bormi?

Javobing bo'lmasa mumtoz-mukammal:
Qo'lingda zulfiqor, belingda kamar,
Duldul tulporingga yor bo'lsa qamar –
Yo'ldoshing sab'ayi sayyor bo'ladi,
Muqaddas javobing sayyor bo'ladi.

BUYUK O'ZBEK YO'LI

RIYOSIZ SO'ZLAR



Usmon AZIM,
O'zbekiston xalq shoiri

MUQADDIMA

Haqiqiy yozuvchi-shoirlar haqiqatni yozishni xush ko'radi. Dunyoning qaysi bir chetidagi adolatsizlik ularga xuddi o'zining uyida ro'y berayotgandek tuyuladi. Qaydadir adolatning barqarorligi yoki g'alabasi ularning ruhiyatini ko'taradi. Ular har bir yaxshi odamning muvaffaqiyatidan quvonadi, odamlarning muammolari esa ularning ham dardiga aylanadi.

Ular – vatanparvar. Har holda O'zbekistonda xuddi shunday. Vatanning gullab-yashnashi, ijobiy o'zgarishlar har bir fuqaroning hayotini yuksaltirish sari qo'yilgan qadam ekanini teran his qiladilar, kayfiyatlarini ko'tariladi. Xudoga ming shukrki,

bu o'zgarishlar har soatda, har kuni ro'y berib turibdi. Butun mamlakat harakatda. Eng muhimi, bu islohotlar jaydari tusda emas, balki jahonning eng ilg'or texnologiyalari asosida olib borilmoqda. Sharoitlar yaratilgani tufayli investitsiyalar bemalol kirib kelyapti. Rivojlanish shiddati butun mamlakatni qamrab olgan.

Qalam ahli bu va ko'plab boshqa yutuqlardan boxabar. Muammolarni bartaraf etish yo'lidagi sa'y-harakatlarni ham mudom sezib turadi.

Yaqinda bir guruh ijodkorlar bilan qo'shni do'st mamlakatda safarda bo'ldik. Bir kech o'z-o'zidan badiha davra tuzilib, suhbat gurillab ketdi. Avval mezbon mamlakatni O'zbekiston bilan taqqos qila boshladik. Baravariga "Biz oldinga ketibmiz" degan xulosaga

keldik! Bugungi O'zbekiston haqida gaplashdik. Men yetmish olti yil umr ko'rganimni, ammo xalqimiz hech qachon bunday yayrab yashamaganini aytib qoldim. Davradagilar bu gapimni ham bir og'izdan tasdiqladi. Ha, shunday! Hech qachon bunday yashamaganmiz!

Yuraklarni faxr bilan to'ldirgan bu e'tiroflar qachon ko'nglimizni to'ldirdi?

Axir, biz e'tirof etgan yutuqlar o'z-o'zidan paydo bo'lgani yo'q-ku!

Uning ortida kimning mehnati-yu zahmati, betinim harakati yotibdi?

Mamlakatimizning barcha hududida yoyilgan bunyodkorlikka kim g'ayrat-shijoat bag'ishlayapti?

(Davomi 2-3-sahifalarda.)





Boshlanishi 1-sahifada.

Savollarga javob bitta: bu olamshumul zafarlarning ortida bir kishining, ha, bir kishining – O'zbekiston Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning fidokorligi turibdi.

Oz emas, ko'p emas, Yangi O'zbekistonni qurmoqchi bo'lgan shu azamat insonning misli ko'rilgan fidokorligi!

Men bu inson haqida ko'p o'yladim. Oxiri, bu odam haqida yozmasam, adolatdan bo'lmas ekan, degan qarorga keldim.

Yo'q, xushomad qilish niyatim yo'q. Nimaga xushomad qilaman? Yoshim bir joyga borgan bo'lsa, mukofot-u unvonlarni ham hech kimga likillamay olgan bo'lsam...



Bu islohotlar boshlanganda mamlakat qay ahvolda edi?

Odamlar qanday yashayotgan edi?

O'zining boshimdan o'tkazganlarimni bir eslay.

Men ko'p qavatli uyda yashayman. Uyimiz necha-necha qishlar bo'yi ismasdi. Bir farzandim keyinchalik "Shu uyda bir umr sovuq qotib ulg'aydik", deb esladi.

Nafaqaga chiqdim. "Ishlasang, nafaqangning yarmi to'lanadi", deyishdi. Nima deyman? Xo'p-da... Ko'pga kelgan to'y.

Maosh hemiri. Yarim pensiyaga qo'shib, oydan oyga arang yetkazamiz.

To'lov plastik kartasi bilan bog'liq mash-mashalarni-ku, aytmay. Do'konga borasan. Kerakli molning narxini so'raysan. "Naqd olsangiz, sakson so'm, plastik karta bilan to'lasangiz, yuz..."

Denovda – bozorning naq o'rtasida "plastik kartadagi pulni naqdga almashtirish punkti" ochildi. O'sha bezbet shaklda – yuz so'm yechib olishsa, sakson so'm qo'lingga berishadi. Eng dahshati, bu "punkt"ni bunday hollar yuz bermasligini nazorat etuvchi tashkilotlarning odamlari yuritdi. Dodingni kimga aytishni bilmaysan...

Bu lo'tibozliklar butun xalq ko'z o'ngida ro'y berdi. Hech kim miq etolmadi. Qo'rquv. Bu qo'rquvdan yaralgan taqdirsizlik – ertani o'yashdan cho'chish – mudom yelkadan toshday bosib turdi.

Qarz ko'tardim. Dollarda qarz berganlarga dollarda qaytarib berish kerak. Bank kassalarining yoniga ham borolmaysan. Banklar dollari sotuvga chiqarib, o'zi sotib olib yotibdi. Odamlarni qo'yib qo'yan – allaqanday shang'ni xotirlan...

Bozorga borasan. Har qadamda "dollarlar" shaykasi... Dollarning narxi rasmiy kurdan ikki barobar baland. Ko'r bo'lib olasan.

Surxondaryoda g'alla yetishtirgan bir tadbirkor menga uchrashib, g'allasini topshirganini, ammo haqini yetib ketishganini aytdi. Men bir-ikki amaldorga aytgan bo'ldim. Biror natija chiqmadi. Tadbirkor shu xo'rlikning jabridan o'lib ketdi...

U-bu joylardagi o'zgarishlar odamlarning dasturxoniga yetib kelmadi. Mamlakatni firibgarlar bosdi.

Bu ishga qarshi kurashishi zarur bo'lgan tashkilotlar davlat ichida davlat tuzdilar. Odamlar ustidan zo'rvonlik joriy etildi.

Masalan, Surxondaryoda xavfsizlik xizmati allaqanday fashistik (boshqa so'z ularning qilmishini ifodalab berolmaydi) tizim o'rnatdi. Odamlarni pashsha o'rinda ko'rmadilar. Xo'rlikdilar, mulklarini tortib oldilar, misli ko'rilgan qiynoqlarga soldilar, o'dirib ham yubordilar. Qiynoqlarning Stalin zamonida kechgan usullarini qo'lladilar. Ularni yanada yangi "pog'ona"larga ko'tardilar.

– Tirnoqlarimni sug'urib oldilar, – deb zorillab eslaydi ularning qo'lga tushgan bir begunoh. – Hammasini baravar sug'ursalar ham mayli edi, har kuni bittasini sug'uradilar...

Hatto hokimlarga ham tazyiq o'tkazildi. Bu yurtda ular ham ishlashdan bezib qoldi. Noiloj ishdan ketish haqida ariza yozdilar.

Mustaqillikdan odamlarning ko'ngli qoldi.

Bitta-yarim tanishlar menga ham ta'na qila boshladi: "Ana siz orzu qilgan istiqloq..."

Rosti, men ham bebaxt yashadim. Gazeta-jurnallarda yozganlarimni nashr etish nari tursin, ism-familiyamni ham o'chirib tashlaydigan bo'lishdi. Men nima qilgan edim? Bir ko'rsatuvda "Birovlar harom-xarish yo'l bilan pul to'playapti. Payti kelgach, pulini ko'tarib, xorijga jo'nab ketadi", degan rost gapni aytgan edim, xolos. Bu ko'rsatuv tufayli televideniya yozgan necha-necha ijodkorlar jazolandi, ishdan ketdi...

Tan olaylik, mustaqillikning ilk davrida yangi tizimli mamlakatni bunyod etish, nochorlikdan qutulish uchun bir qadar qattiqqo'llik ham zarur edi. Ammo mamlakat rivojlanib borgan sari bu qattiqqo'llik o'rinni adolat o'lchamlariga mos yo'riqlar asta-asta egallab borishi kerakligi ham barchaga ayon edi. Biroq bunday bo'lmadi. Chunki eng tepadagi odam ham nayrangbozlarning qo'lida asirday yashadi. Joylarda ro'y berayotgan, hatto o'z oilasida ro'y berayotgan voqealardan ham g'aflatda qoldi. Barcha adolatsizliklar sir tutildi.

Yuqorida yozganlarimni hech kim rad etolmaydi. Ularni bor bo'yicha ko'rsatish uchun esa necha jildlab kitoblar yozilsa bo'ladi. Men faqat boshimdan o'tkazganlarimning va

RIYOSIZ SO'ZLAR



tug'ilgan yurtim Surxondaryoda ro'y bergan mash'um voqealarning bir qisminigina eslayapman.

Avj olgan muammolarni bartaraf etish yo'llarini hech kim bilmasdi.

Biroq Parvardigor bilguvchidir! U mamlakatni rivojlanish sari yo'naltirish uchun nima qilish kerakligini aniq bildi.

Mamlakat Prezidentligiga Shavkat Miromonovich Mirziyoyev saylandi va... birdan mo'jizalarga o'xshash hodisalar ro'y bera boshladi.

Aytib o'tganim – ko'rgiliklar bitta-bitta yechimini topib ketaverdi. To'lov plastik kartalari risoladagiday ishlay boshladi. Pensiylar to'liq beriladigan bo'ldi. Banklar yangicha ishlash tizimiga o'tdi: xohlasalaring, mana so'm, istasalaring dollar, marhamat... Surxondaryodagi odam qiyofasidagi hayvonlar ham jazosini oldi. Ammo bu yechimlarni topish uchun qanchalar sabot va jasorat kerak bo'lgani faqat va faqat Shavkat Miromonovichning bir o'ziga ayon. Axir, qalamga olganim hodisalaridan tashqari, uning zimmasida yana qancha-qancha tashvishlar bor edi.

Birgina Surxon xalqini zor qaqshatgan mustaqillikning zararkunandalari shaykasini tugatish naqadar qiyin bo'lganini tasavvur qilaman. Axir, ular osmondan tushmagan – bu gumrohlarni Toshkentdagi martabasi baland, beli baquvvat, birovi nazar-pisand qilmaydigan homiylari qo'llab-quvvatlab turardi. Bu jinoyatchilar to'dasining ko'lami juda katta – bir-biri bilan zich bog'lanib ketgan, xalqning manfaatini degan muqaddas tushunchani tushida ham ko'rmagan, odamlar hayotini xasdan ham arzon bilgan bedavolardan iborat edi. Avval mana shu to'daning boshi kesildi. Bu ish oson bo'lmadi. Bo'shangroq bir odam bo'lganda ular bilan murosaiy madora etib ketaverardi. Ammo Shavkat Miromonovich bunday qilishni o'ziga ep bilmadi. Chunki o'rtada Vatani, xalq taqdiri bor edi. Bo'lajak Vatanni bunday to'dalarga panja orasidan qarab emas, balki bu toifa noqislardan tozalab, pokiza niyat va ezgu harakatlar bilan yaratish lozimligini Shavkat Miromonovich mudom his etib turardi.

Vatanni halol odamlar yaratishini bu inson juda teran tushunadi. Qotillik illati yuqqa bu kaslardan el-yurt ozod qilindi. Avval "tepa"dagi, keyin pastdagi qatlam ildizi bilan sug'urib tashlandi. Bu gaplar aytishga oson...

Mamlakatimiz tarixida ushbu voqealar kimgadir juda kichik epizod bo'lib tuyular, ammo Vatanni xalqning boshiga chiqib olgan bunday jirkanch to'dalardan ozod etish uchun rahbarimizga qanchalar matonat va qat'iylat kerak bo'lganini bir tasavvur qilib ko'ring!

Esimda: bu voqealar nihoyasiga yetkazilgach, Prezidentimiz Surxonga tashrif buyurib, "Surxondaryo xalqi, endi ozodsan!" deb elga murojaat etgan edi.

Haqiqatan, Surxondaryo erkin nafas oldi. Men faqat yaxshi bilganim – Surxondaryo haqida yozayapman. O'zbekistonda esa o'n to'rtta ma'muriy-hududiy birlik bor. Prezidentimizning ularni muammolarni hal etishdagi mardonavor sa'y-harakatini qalamga olish uchun esa bu maqola kichiklik qilishini sezib turibman.

Odamlar yaxshilikka tez ko'nikadi. Bir-ikki "Yaxshi bo'ldi-ye!" deb quvonadi-yu, keyin xuddi hamisha shunday bo'lganday o'tib ketaveradi. Nazarimda, shunday bo'lgani ham durust! Odamlar odamga o'xshab yashashni o'rganyapti! Munosib yashash mo'jiza emas, shunchaki, har kuni biz yuzma-yuz duch keladigan voqelik ekaniga ko'nikib boryapmiz-da!..

Ammo men rivojlanish jarayoni shu qadar jadal borayotganidan baribir quvonaman. Avliyolar, olimlar maskani bo'lgan Termiz esimni bilganimdan buyon ko'rimisiz, chang-to'zonga qorishgan, soya-salqindan yiroq – yopiq harbiy shaharcha edi. Unga kirishning o'zi ham bir mashaqqat – harbiylarning posti o'rnatilgan, har bir yo'lovchining pasporti



korlikni qaysi qudrat harakatga keltiryapti? Bu savolga javob aniq: Shavkat Miromonovich Mirziyoyev!



sinchiklab tekshiril, agar Surxondaryo hisobida bo'lmasangiz, o'tib ko'ring-chi!

Mustaqillikdan keyin esa, xabaringiz bor, bunday tekshiruvlar yanada avj oldi. Endi har bir viloyat o'rtasida sun'iy to'siqlar – postlar o'rnatildi. Bu holat xalqimizning mamlakatimiz bo'ylab erkin harakatlanishiga xalal beradigan ortiqcha mashmasa edi. Pasportni unutgan bo'lsangiz, bu postlardan o'tishning yagona yo'li – imkonini topib, "posbon"larga para berish edi... Boshqa ilojingiz yo'q. Nazarimda, bu postlar xuddi shunday vaziyat yaratish uchun qo'yilgan tuzoq edi...

Surxondaryoda esa bu holat yo'lovchini jiddiy tahlikaga soladigan darajada murakkab edi. Viloyatga kirishda – Darband postida xuddi xorijga ketayotganingiz kabi bor-yo'g'ingiz tintilar, yuklaringiz esa lentaga solinib, lazerli uskunalar yordamida ko'zdan kechirilardi. Bu ham yetmagandek, jomadon-u sumkalar ham ochtirilib, tekshirilardi... Tintuv. Xullas, pora bermasangiz, qutulib bo'psiz. Termizga va Sariosiyoga kiraverishda yana shu holga duch kelinar edi.

Bu to'siqlarning hammasi Shavkat Miromonovichning bir shashti bilan yo'q bo'ldi. Chang-u g'uborga qorishgan Termiz ham birdan o'zgarib boshladi.

Hozir bu shahar ko'chalarining ikki chetida manzarali daraxtli soya tashlab turibdi. Ketgunicha yam-yashil chimzor. Gullar ajib did did ekilgan. Yaqinda mehmonxonadan mashinada chiqib, mana shunday go'zal – bir qarich ham uzilmagan manzarani oralab, aeroportgacha bordim. Xorijiy kurort shaharchalarni eslatadi. Yangi qurilgan shina, ko'rkam imoratlar ham yarashli. Menga o'qituvchilardan biri "Odamlarning uy-joyga ehtiyoji to'liq ta'minlangan, bir xonadonda ikki-uch oila tiqilib yashashdan qutulgan", deb qoldi. Amaldor emas, o'qituvchi aytdi!

Termiz esa o'syapti. Baland-baland binolar qad ko'taryapti. Hatto shahar erkin nafas roslab, tiqilmay kengayishi uchun qo'shimcha yerlar kerakligi ko'zga tashlanib qoldi. Shavkat Miromonovich bu masalani ham hal qilib berdi – shaharga qo'shimcha joylar ajratildi.

O'quvchida "Surxondaryoda faqat Termiz gullab-yashnayotgan ekan", degan taassurot qolmasligi uchun aytib qo'yay, viloyatlardagi barcha tumanlar o'zgacha qiyofa kasb etgan. Chamasi, besh-olti yil avval bir guruh san'atkorlar bilan Surxonning shimoliy hududlari sari ketayotgan edik. Yo'lda bir zum chalg'ibman. O'zimga kelib qarasan, bir notanish shaharning yonidan o'tyapmiz. Ko'p qavatli uylar, orasida orasta yo'laklar, daraxtlar, bolalar o'ynaydigan maydonchalar lip-lip o'tadi. Qayerga kelib qoldik? Surxondaryoning har bir qarich yerini bilaman. Nahotki, tush ko'rayotgan bo'lsam? Biroz yurgach, angladim: bu – Denov. Ha, o'zim boshdan adoq kezib-bilib yurganim Denov! Ey Xudo! Bu shahar ichidagi shahar – mo'jiza qachon, qanday barpo bo'ldi? Shuncha tezmi? Angladim – bu mo'jiza Prezidentimizning shijoati tufayli bunyod bo'lgan! So'ng tasavvur qildim: mamlakatda qancha tuman bor, qancha shahar bor, boringki, mahallalar bor... Barchasida mana shunday bunyodkorlik ketayotgan bo'lsa kerak-da! Ketyapti!

Butun mamlakatda bunday yoppa bunyod-

korlikni qaysi qudrat harakatga keltiryapti? Bu savolga javob aniq: Shavkat Miromonovich Mirziyoyev!



Men majlislarda kam qatnashaman. Maqsad majlis o'tkazishdangina iborat bo'lgan yig'inlardan o'zinni tortaman.

Ammo yaqin kunlarda ikki majlisda qatnashib, vaqt qanday o'tganini sezmadim. Zavqlanib o'tirdim. O'zbekistonni sevadigan bir vatanparvar sifatida faxr-u quvonchga bo'ldim. Gap Vatanimizning bir bo'lagi bo'lgan Surxondaryoning ertasi haqida ketdi. Prezidentimiz viloyatda 2030-yilga qadar amalga oshiriladigan rejalar haqida so'zladim.

Majlisda rejalar haqida shunchaki gapirilmadi, balki uni amalga oshirish uchun puxta, ko'lami va aniq tayyorgarlik ko'rilgani ma'lum bo'ldi. Masalan, mana bu tarzda: reja loyihasi tayyor, mablag' bor (bank boshlig'i tasdiqlaydi) yoxud jahondagi qaysi investor bilan kelishilgani aytiladi), bu rejani amalga oshiradigan tashkilot ham shay turibdi. Ishni qachon boshlash sanasi ham avvaldan aniqlangan. Mutasaddilar yana bir bor majlis ahli oldida axborot berdi. Har bir loyihadagi qancha ish joyi ochilishi ham ochiqlab borildi. Yuzlab, minglab...

Har bir reja haqida so'z ketganda, shu tartib amalga oshirildi. Biror-bir ishni bajarish orzu sifatida aytilmadi. Aksincha, qat'iyl ishonch bilan axborot berildi.

Bu rejalarining bir uchi xorijga borib qadalganda esa onlayn tarzda majlisda qatnashayotgan elchilarimiz chet ellik hamkorlar hozir turganini, O'zbekistonda imo bo'lgach, shu zahotiyoch uchib borishini ma'lum qildi. Xorijlik hamkorlar ham unday-bunday mamlakatlardan emas – Xitoydan tortib, Janubiy Afrika Respublikasigacha!

Shavkat Miromonovich hech narsani unutmadi. Prezidentimiz bugun nima ishlarni bajarish lozimligini, ertaga nimani amalga oshirish kerakligini ichki – ongosti tuyg'u bilan his qilishini shundoq sezib turdim.

Katta-yu kichik muammolarning yechimini topishda bir xil mas'uliyat bilan yondashishiga, ba'zan badihalari ham guvoh bo'ldim.

Majlisdan avval boysunlik – kurash bo'yicha birinchi jahon chempioni Toshtemir polvon Muhammadiyev bilan yosh kurashchilar uchun ochilgan internat haqida suhbatlashgan edik. Majlis so'ngrog'ida Prezidentimiz ana shu polvonga murojaat qilib qoldi:

– Sening internatning maktabi yo'g'a-a?
– Yo'q, – dedi polvon.
– Bolalar qayerga o'qishga boradi?
– Shu atrofdagi qishloqlardagi maktablarga.
Shavkat Miromonovich ko'zi bilan zaldan kerakli odamni izlab topdi:
– Puling bor-a?
– Ha, – deb o'rnidan qo'zg'aldi "kerakli odam".

– Shu polvonning internatiga maktab qurib berolasanmi?

"Kerakli odam" jon deb rozi bo'ldi.
– Birinchi sentyabrgacha tayyor bo'lsin! – dedi Prezidentimiz.

Zavqlanganimdan sekingina bo'lsa-da "Voya", deb yubordim. Axir Shavkat Miromonovichning yelkasida qariyb o'ttiz to'qqiz million nufusli xalqning tashvishi turibdi! Mamlakatda, eh-he, qancha maktab bor! Endi kelib-kelib, Prezidentimiz Toshtemir polvonning maktab-internati muammosini eslab o'tirsak...

Yig'inda menga ham so'z berildi va men bu majlisi surxondaryoliklar uchun bayram deb atadim. Chunki tushunishimcha, Vatani degan muhtasham imorat rivoji uchun qo'yilgan har bir g'isht – bayram. Bugun esa qanchadan qancha g'ishtlar qo'yildi!

Bu majlisda aytilgan va kelgusida amalga oshiriladigan har bir reja yurt xazinasi qanchalar boyishi, odamlar xonadoniga qanchalar fayz-u baraka olib kirishi haqidagi raqamlarni eslab o'tirmayman. Chunki ular matbuotda yetarlicha yoritildi.

Ammo bir qutlug' xabarni aytmasam bo'lmaydi.

Yigirma oltinchi aprelda Boysunga boradigan bo'ldim.

Termizdan keladigan yo'l manzilga olti-yetti kilometr qolganda yuqoridagi majlisda tilga olingan – bir necha yillardan buyon qurilishi davom etayotgan Darband – Denov trassasiga qo'shiladi. Biz bo'lajak trassaga tushdik. Pishiq qilib ishlangan beton yo'l. G'izillab ketyapmiz. Faqat ikki joyda gavarasi ko'tarilib, qurilishi nihoyasiga yetmagan ko'priklarni aylanib o'tdik, xolos. Ichimda "Bir-ikki oyda bitib qolar", deb o'yladim.

To'rt kundan keyin "Boysun bahori" festivalida qatnashish uchun shu yo'ldan yana o'tishga to'g'ri keldi. Bu safar mashinamiz tayyor bo'lgan ko'priklar ustidan g'izillab o'tib ketdi! Ha, tayyor bo'lgan ko'priklar ustidan! Oradan faqat to'rt kun o'tib!.. Yana ruhimni quvonch seli bosdi! Qoyil! Va Termizdagi majlisda aytilgan barcha rejalar o'z muddatida bajarilishiga ishonchim komil bo'ldi.

Prezidentimiz yig'in so'ngida shu taxlit rejalar bilan barcha viloyatga va Qoraqalpog'istonga borilishini ta'kidlab o'tdi! Yana mamlakat kelajagini barpo etish yo'lida ommaviy jadal harakat! Bir zum bo'shshamaydigan, el dasturxoniga baraka beradigan rejalar. Bu rejalarining asoschisi Shavkat Miromonovich ham bir zum tinim bilmaydigan, mudom xalq manfaatini uchun kuyib-yonadigan inson! Ezgu niyatlariga farishtalar omin deydi! Parvardigor rahmat eshigini ochadi!

Men yaqin kelajakda yurtimizning eng ilg'or mamlakatlar qatoridan o'rin olishiga ishonaman. Bu ishonchimga qo'shilmaydiganlar bo'lsa, Jahon bankining O'zbekistonning rivojlanish sur'ati haqidagi raqamlariga murojaat etsin. Bank 2026-yilda mamlakatimiz yalpi ishlab chiqarishi sur'atini 7,7 foiz etib, prognoz beryapti. Xorijlik mutaxassislar fikricha, o'n-o'n ikki yildan keyin O'zbekistonning yalpi ishlab chiqarishi trillion dollardan oshar ekan! Trillion! Bular osmondan olingan emas, aniq faktlar tahlili asosida yuzaga kelgan raqamlar! Ko'z tegmasin!

Uzr, xorijlik mutaxassislarni ham xijolat etib qo'yyapmiz! Yuqoridagi raqamlarni yozgandan keyin hozirgina o'qib qoldim: o'shimiz sur'ati ularning taxminidan juda yuqori – 8,7 foizdan ziyod ekan!



Dunyoning ulug' donishmandlari insoniyatni tutib turgan qadriyatlar haqida oxir-oqibat yagona xulosaga kelgan. Insonlar, xalqlar, davlatlar o'rtasidagi munosabatlarga o'zi ham aralashib, ne-ne g'av'g'olarni boshdan o'tkazgan Alisher Navoiy bir kuni mana bunday satrlarni bitgan:

*Olam ahli, bilingizkim,
ish emas dushmanlig',
Yor o'lung bir-biringizgaki,
erur yorlig' ish.*

Bu bayt ma'nosini barcha anglab turgan bo'lsa ham mayli, sharhlab qo'yay: "Dunyo odamlari, – deyapti shoir, – bilib qo'ying: dushmanlik yaxshi ish emas. Bir-biringiz bilan do'st bo'ling, insonga faqat do'stlik yarashadi".

Shavkat Miromonovich, nazarimda, hali Prezidentlik lavozimiga saylanmasdan oldin ham "dushmanlik" ish emas" ekanini chuqur tushungan. Markaziy Osiyodagi qondosh-jondosh mamlakatlar o'rtasida avj olgan noxushliklarni yuragi achishib kuzatgan. U boshqargan Vazirlar Mahkamasining vazifasi xo'jalik yuritish bo'lgani uchun qo'shnilar bilan munosabatimiz yomonligi tufayli rivojlanish imilliyotidan teran his qilgan. Eng muhimi, bu g'afvalardan odamlar ham azoblanayotganini o'z ko'zi bilan ko'rgan.

Albatta, shunday bo'lgan! Shu bois, Shavkat Miromonovich mamlakat boshqaruvi jilovini o'z qo'lga olgach, bir zum tin olmay, avvalo, qo'shnilar bilan qarindoshlik-qarindoshlik rishtalarini tiklay boshladi. Bu ish qancha og'ir-yengil kechgani faqat shu ezgu niyatli odamning o'ziga ma'lum. Ammo natija qutlug' – qo'shni mamlakatlarga yo'lizim tushsa, O'zbekistonning bir fuqarosi sifatida biz ham izzat-hurmat ko'rayapmiz.

Surxondaryo viloyati uchta mamlakat bilan chegaradosh. Sho'rolar davrida, masalan, Tojikiston bilan O'zbekiston o'rtasida chegara bor-yo'qligi esimizga ham tushmasdi. Termiz yopiq shahar bo'lgani uchun Dushanbega ham uchib borib, Surxonga o'tib ketaverdik. Ba'zilar kattaroq bozor-o'charini Dushanbega borib qildirdi... Ammo mustaqillikdan keyin bir muddat o'tgach, hamma o'ziga xon, o'ziga bek bo'lib oldi. Chegaradan o'tish ushalmas orzuga aylandi!

Hozir tarixga aylangan boshg'riq bu kunlardan bir shingil voqeani kuni kecha hikoya qilib berishdi. Sariosiyoda yashaydigan bir keksa ayolning Regardagi singlisi vafot etganda jigaring qabrini ziyorat etish uchun



sakkiz yil urinib, chegaradan o'tolmagan ekan. Regar bilan Sariosiyoyni orasi, ha boringki, yarim soatlik yo'li!

Ikki mamlakat o'rtasida do'stlik-birodarlik munosabatlari o'rnatilgach, qarindoshlar bu uzoq ayriqliqdan so'ng yig'lab-siqtab yuz ko'rishdi. Dushanbedan shuvillab mashinalar Surxondaryoga keladigan, uch-to'rt sariosiyoynik do'stlar "Dushanbeni bir aylanib kelaylik", deb yo'lga chiqadigan bo'ldi. Bir qadam yo'li Ertalab borib, kechqurun qaytib kelasiz!

Tojikistonni boshqa hududlar, qo'yingki, jahon bilan bog'lovchi asosiy yo'llar yurtimiz orqali o'tadi! Endi bunday imkoniyatlarga ega tojik xalqining xurramligi nechog'liq bo'lganini tasavvur eting!

Shu sababdan Shavkat Miromonovich bu qo'shnilarimiz yurtiga tashrif buyurganda, Emomali Rahmon sahnadan turib, hazil aralash juda zo'r lutf etgan edi: "Bular, — dedi u zalni to'ldirib o'tirgan tojik xalqi vakillariga ishora etib, — sizni mendan ham ortiq yaxshi ko'radi!" Mana hurmat! Mana qardoshlik!

Prezidentimizning bu tashrifidan so'ng bir muddat o'tgach, besh-olti yuzuvchi jam bo'lib, Dushanbega bordik. Maqsadimiz Boysunda tug'ilgan do'stimiz, Tojikiston xalq yozuvchisi Sattor Tursun vafoti munosabati bilan yaqinlariga hamdardlik bildirish edi. Yoz kunlari. Egnimizda yozlik yengil-bosh... Aeroportda esa bizni o'n-o'n besh chog'li kishi — oppoq ko'yak, qora kostyum-shim kiygan tojik do'stlarimiz kutib oldi. Ertasi kuni kutilmaganda Tojikiston Yozuvchilar uyushmasida qardosh adabiyotlarimiz aloqalari haqida konferensiya o'tkazildi. Yana hamma o'sha rasmiy kiyimda. Ko'chada esa yoz... Birodarlar, bu tarzda majlisning nomini izzat-ikrom deydilar! O'zbeklarga izzat-ikrom!

Bizni Surxondaryoga olib ketgani yurtimizdan og'aynilar keldi. Men yo'lga qanday ketsak bo'ladi, avtomobillarni haydovchilar qaysi tezlikda haydasa ma'qul, milisalar to'xtatsa, qanday muomala qilish kerak, deb so'rab qoldim. Har holda mashinalarimiz raqami O'zbekistonniki-da! Tojik do'stlarning javobi meni hayrat qoldirdi:

— Har qanday tezlikda haydayveringlar! Milisalar to'xtatmaydi! Prezidentimiz O'zbeklar mening mehmonim — ularga hech kim teginmasin!, deb yuqori minbarda aytgan!

Qalay? Bu gaplar o'zbek xalqiga hurmatning eng cho'qqisi edi.

Ikki xalq o'rtasidagi bu izzat-hurmatning qaytishi, yanada yuqori darajaga ko'tarilishi Shavkat Miromonovichning jonkuyarligi, samimiy — diplomatik mahorati va insoniy fazilatlari bilan bog'liq edi.

Yaqinda atoqli o'zbek shoiri ShavkatRahmon tavalludining 75 yilgini nishonlash uchun O'sh shahriga bir guruh ijodkorlar bilan yo'lga chiqdik. Ilgari ham O'sh safarida bo'lganman. Chegara mashmalarini o'ylab, ko'nglim xijil bo'lib borayotgandim. Ammo bezovtalikka o'r'in yo'q ekan. O'zbekiston fuqaroligiga oid hujjatlarimizni ko'rsatib, bemalol o'tib ketaverdik. Qirg'izlar ham yurtimizga shunday kirib kelyapti.

Bu bemalollikni yaratgan, ikki xalq o'rtasida ishonch va haqiqiy do'stlikni qayta barpo etgan insonlarni alqadik. Axir, bu ikki qo'shni xalq o'rtasidan nimalar o'tmagan edi!

Shavkat Rahmonning yubileyiga bag'ishlangan ijodiy kecha nihoyatda baland saviyada o'tdi. Majlisda Qirg'iziston hukumatining bosh kotibi, nufuzli TURKSOY tashkiloti rahbari, O'sh shahri hokimi qatnashdi va nutq so'zladi. Shavkat Rahmon o'qigan maktabga va shaharning katta ko'chalaridan biriga shoir nomi berildi.

Albatta, bu katta shoir shunday ehtiromga arziydi. Shubha yo'q. Ammo, baribir, bu samimiy ehtiromning sababchisi Shavkat Miromonovich ekanini ham har daqiqada his qilib turdik.

Kamina Qozog'iston safarida bo'lganimga do'stlarning xuddi shunday mehri qayta keldim. Bir emas, bir necha mukofot bilan taqdirlandim. Hatto xorijiy bir mamlakatning adabiy mukofoti ham qozoq do'stlarimizning tavsiyasi bilan menga topshirildi. Agar munosabatlarning avvaldagi g'arazli kechganda, shunday hol ro'y berarmidi?!

Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasidagi bu ittifoqchilikning, bag'rikenglikning va mehr-u muhabbatning bosh me'mori Shavkat Miromonovich ekanini hozir barcha ko'rib turibdi. Xorijliklar ham bu mintaqani rivojlanish sari boshlab boradigan kuch sifatida O'zbekistonga qaramoqda.

Men, asosan, azaliy yaqin qo'shnilarimiz bilan munosabatlar haqida yozdim. Har kuni o'zgarayotgan bu chigal dunyodagi boshqa mamlakatlar bilan munosabatlarni ham aytishga arzigulik ekanini ta'kidlab o'tmoqchiman. Masalan, Afg'oniston bilan yetarli darajada aloqalar o'rnatganmiz. Axir, bu mamlakat orqali okeanlarga chiqish orzumiz bor!.. Hozir shundoq Amudaryodagi ko'prikan o'tib, o'zbek tuprog'iga qadam qo'yilgan joyda "O'zbekiston — Afg'oniston chegarasi oldi savdo hududi" bunyod etilgan. Qator-qator do'konlar, mehmonxonalar, oshxonalar... Savdosotiq avjida. Hudud to'lib-toshib ketyapti. Prezidentimiz bu hududga yana qo'shimcha yer ajratish haqida topshiriq berdi.

Albatta, bu yon qo'shnilarimiz ham O'zbe-

kiston rahbari sha'niga iliq so'zlar aytgani aytgan...

Dunyoda haqiqiy obro'ga ega bo'lish oson ish emas. Bu rutbaga iste'dodli, o'zini ayamay mehnat qiladigan, farosatli, boshqalarning ham manfaatini hurmat etadigan, o'z mamlakatini ham jonidan yaxshi ko'radigan siyosiy arboblarga sazovor bo'ladi.

Mana shunday obro'ga ega bo'lganlardan biri esa bizning Prezidentimiz — Shavkat Miromonovich! Ha, o'zimizning Prezidentimiz!



Mamlakatimizdagi o'zgarishlarning oqimi juda katta. Ularning hammasi "Men — o'zbekman!" deganlarni quvontiradi.

Masalan, keyingi oylardagina ro'y bergan qator yangiliklar hali-hanuz meni hayratga solib kelyapti.

Agar ikki-uch yil avval birov "Barchamizning jonimizga teggan shu paxtadan sakson-to'qson sentnerdan hosil olinadi", desa, kamina "Qo'ysang-chi", deb kulishi aniq edi. Ammo xuddi shunday bo'ldi! Yana qayerda deng? Sirdaryodal! Bu viloyatda talabaligimda paxta terganman. O'racha yigirma sentnerdan hosil olinsa, do'ppi osmonga otilardi! Endi esa... Odam ishonmaydi. Hatto dehqonlarning o'zi ham chanoqlar boshdan aldoq ochildan paxtazorga qarab, hayrat bilan gapirganiga guvoh bo'lganman. Xorijdan urug'lik keltirildimi? Keltirildi. Ammo o'zimiz ham qarab turganimiz yo'q. "Porloq" navli g'o'zamiz xorijiy navlardan ortiq bo'lsa ortiq, lekin kam emas!

Bir jumla bilan aytilganda, paxtachilikda inqilob ro'y berdi!

Hayratlanarli yana bir voqea.

Olmaliqda 3-mis boyitish fabrikasi ishga tushirildi. Bunday fabrikalar qurilib, ishga tushirilish jarayoni butun jahonda o'n yilga cho'zilar ekan. Bizda esa to'rt yilda (ha, to'rt yilda!) amalga oshirildi. Bu muddatga hatto o'zimizning eng katta mutaxassislar ham, amerikalik hamkor ham ishonqiraman ekan. Mana shu amerikalik endi butun jahonni O'zbekistonning bu tezkor tajribasini o'rganishga chaqirdi.

Yana bir hayrat. Faqat men emas, hali o'zbeklarning necha-necha avlodi g'ururlanadigan mo'jiza — Islom sivilizatsiyasi markazining bunyod etilishi. Bu markaz ajib did bilan qurilgan koshona. Devorlarida qo'l bilan ishlangan naqshlar, butun dunyodan yig'ib kelingan — ilgari o'zimizdan olib chiqib ketilgan noyob eksponatlar, Usmon Qur'oni, qadimiy qo'lyozmalar... Ularni namoyish etish uchun eng zamonaviy texnologiyalarning qo'llanishi...

Shavkat Miromonovich markazning qurilishi haqida qiziq tushuntirish berdi: "Bu markazning qurilishida shoshmadik. Sakkiz yilda oxiriga yetkazdik..."

Bu izoh menga juda yoqdi. Chunki navbatdagi bir imorat emas, balki san'at asari qurilayotgan edi! San'at asari yaratilishiga xuddi shunday sabr-toqat bilan yondashiladi! Prezidentimiz mana shu noziklikni anglagan!

Xullas, asrlarga tatigulik inshoot dunyoga kelgan.

Men internetda bu mo'jizani tomosha qilish uchun borayotgan ikki kishining suhbatini eshitdim.

— Sen, — dedi ularning biri imorat bor bo'yicha ko'ringach, — Tojmahalni ham ko'rgansan. Qaysi zo'r?..

— Bu zo'rov, — dedi hamrohi binoga nazar tashlab. So'ng ishonch bilan bir qarorga keldi. — Bu zo'ri!

Tamom, vassalom! Bu zo'ri!

Bunday bunyodkorliklar haqida yozaversam, ado bo'lmaydi shekilli.

Bugun internetni ochdim. Mana, tilga olingan yangiliklar: Toshkentdan Xorazmga yo'l olgan "Jaloliddin Manguberdi" tezyurur poyezdi, Toshkent viloyati markazidan Bekoboddan aylantirilish, Yangiyerga boradigan yangi 111 kilometrli yangi temir yo'l qurilishi, Samarqandga boradigan yangi tezkor yo'l, Toshkentdagi yangi aeroportdagi asosiy ishlarimiz boshlanishi...

Nazarimda, hayratlarimning endi cheki bo'lmaydi.

So'ngso'z o'rnida

Sport ishqiboziman. Ishqibozligimni biladigan Xayrulla degan jurnalist ukam — to'qsoninchi yillarining oxirida bo'lsa kerak, futbol gazetalaridan biriga intervyu olib qoldi.

— Mana, Yaponiya futbol jamoasi jahon chempionati finaliga yo'llanma oldi, — dedi u. — Biz qachon jahon chempionatiga chiqamiz?

— Endi, — dedim men atrofimdagi voqealarni bir zum ko'z oldimga keltirib, — mamlakatimizning Yaponiyaga mengzab rivojlanishini kutamiz-da, ukam.

Orzumizga erishdik. Futbolchilarimiz final yo'llanmasini qo'lga kiritdi. Demak... Yaponiyaga mengzab ketyapmizmi? Shunga juda o'xshaydi. Har holda rivojlanishimiz sur'ati kunchiqar yurtnikning ancha baland.

Ishonchim komil, shunday bo'ladi! Chunki Vatanimizning bugunini va ertasini yaratishga vatanparvar, xalqparvar, ish-bilarmon va adolatli inson bel bog'lagan!

"Yangi O'zbekiston" gazetasining 2026-yil 12-may sonidan olindi.

TURKIY DUNYO VA TURKISTON SAMMITI

Boshlanishi 1-sahifada.

Bu tadbir nafaqat turkiy xalqlarning ma'naviy poytaxtida o'tayotgani bilan, balki global geosiyosiy vaziyat nihoyatda murakkablashgan bir davrga to'g'ri kelayotgani bilan ham tarixiy ahamiyatga ega.

Dunyo xaritasida yangi kuch markazlari shakllanayotgan, yirik davlatlar o'rtasidagi qarama-qarshilik kuchaygan va an'anaviy xavfsizlik tizimlari zaiflashgan bir paytda, Turkiy davlatlar tashkiloti xalqaro maydonda salmoqli kuch sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tarixan XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston va butun turkiy olamda yuz bergan jadidlik harakati milliy uyg'onish va o'zaro yaqinlashuvning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'ldi. Ismoil G'asprali, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauq Fitrat, Abdulla Avloniy kabi jadid namoyandalari turkiy xalqlarning kelajagini faqatgina birlik va ilm-fan taraqqiyotida ko'rishgan. Jadidlarning muhim xizmatlaridan biri shundaki, ular ta'lim va ilm-fanni modernizatsiya qilish, "Usuli jadid" maktablari orqali dunyoviy bilimlarni tarqatib, jamiyatni jaholatdan qutqarishga intilishdi. Ismoil G'aspralining mashhur "Tilda, fikrda, ishda birlik!" shiori bugungi turkiy integratsiyaning kontseptual asosiga aylandi.

"Tarjimon", "Sadoyi Turkiston" kabi gazetalar orqali turli mintaqalardagi turkiy xalqlar o'rtasida ma'naviy ko'priklar o'rnatildi.

Jadidlarning orzusi bo'lgan "Turkiston muxtoriyati" yoki yagona turkiy makon g'oyasi o'z davrida siyosiy bosimlar ostida qolgan bo'lsa-da, uning ma'naviy urug'lari bugungi kunda bo'y ko'rsatmoqda. Xususan, hozirgi turkiy integratsiya makoni jadidlarning uchta asosiy tamoyilini o'zida mujassam etgan. Birinchisi, ma'naviy yaqinlashuv, tarixiy meros va diniy-madaniy qadriyatlarini qayta tiklash. Ikkinchisi, jamiyatni modernizatsiyalash, raqamli texnologiyalar, innovatsion iqtisodiyot va ta'lim sohasidagi qo'shma loyihalar. Uchinchisi, davlatlararo siyosiy ishonch va xavfsizlik sohasidagi hamkorlik.

Jahonda "Yalta tizimi" yemirilib, yangi tartibot shakllanayotgan bir paytda, TDTning birligi ulkan mintaqada barqarorlikni ta'minlash, davlatlar suverenitetini himoya qilish borasida nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Xususan, Turkiy davlatlar tashkiloti G'arb va Sharq (AQSH va Xitoy yoki Rossiya) o'rtasidagi global raqobatda muvozanatlashuvchi rolni o'ynaydi.

Bu davlatlarga yirik kuchlarning bosimidan himoyalash va o'z milliy manfaatlarini jamoaviy tarzda himoya qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, xalqaro institutlar (masalan, BMT) inqirozga yuz tutgan sharoitda, TDT o'xshash madaniyat, til va qadriyatlarga ega davlatlarning o'zaro ishonchga asoslangan muloqot maydoniga aylandi. Bu yerda murakkab masalalar "katta og'a"si, teng huquqlik asosida hal etiladi. Tuzilma mintaqaviy barqarorlik kafolati hamdir. Afg'onistondagi vaziyat va Yaqin Sharqdagi mojarolar fonida Turkiy dunyoning jipslashishi Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqasini beqarorlikdan asrovchi "xavfsizlik kamari" vazifasini o'taydi.

Turkiston sammiti norasmiy maqomga ega bo'lsa-da, unda qabul qilinadigan qarorlar strategik ahamiyatga ega. Kun tartibida "Turkiy dunyo nigohi — 2040" dasturini amalga oshirish, bo'xona to'siqlarini kamaytirish va yagona transport makonini yaratish masalalari markaziy o'r'in tutishi kutilmoqda. Shuningdek, dunyodagi so'nggi harbiy va iqtisodiy mojarolar fonida, turkiy davlatlarning mudofaa sanoati sohasidagi hamkorligini kengaytirish masalasi ham muhokama qilinishi ehtimoldan xoli emas.



“Turkiy dunyo asrlar davomida nafaqat jang maydonlarida, balki falsafa, ilm-fan va madaniyat sohasida ham sezilarli iz qoldirgan. Bu zamin farzandlari ma'naviyat hamda go'zallikka intilish sohasida insoniyat sivilizatsiyasi xazinasiga bebaho hissa qo'shganlar.

Sulton RAYEV



Turkiy davlatlar tashkiloti — bu shunchaki o'tmishdagi idlzlarni eslash emas, balki kelajakdagi xavf-xatarlarga qarshi jamoaviy qalqondir.

2026-yilgi Turkiston sammiti turkiy xalqlarning nafaqat madaniy, balki siyosiy va iqtisodiy jihatdan bir butun kuchga aylanayotganini namoyish etadi. Dunyoda keskinlik ortayotgan bir sharoitda, bunday ittifoq mintaqamizning barqarorligi va farovonligi uchun eng muhim kafolatlardan biridir. Aniqroq aytganda, XX asrda Yevropa ittifoqi insoniyat tarixiy va siyosiy hayotida, xalqaro tinchlikning ta'minotida qanday rol o'ynagan bo'lsa, XXI asrda yaratilajak Turkiy davlatlar birligi ham shu funksiyani, ayni paytda yanada katta siyosiy tajriba va potentsialni amalga oshirish imkonini beradi. Shu yo'l bilan endigina mustaqillikka erishgan turkiy davlatlarning qardoshlik munosabatlari yaratishga katta hissa qo'shgan Turkiyaning marhum prezidenti Turg'ut O'zalning 1992-yilda "XXI asr — turkiylar asri bo'ladi" deya uzoqni ko'zlab aylilgan so'zlari o'z tasdiqini topishi mumkin. Hali o'sha paytlar Turg'ut O'zalning bu nekbin va jasoratli siyosiy qarashlariga o'z munosabatini bildirgan siyosatchilar bu o'rinda faqat Turkiya emas, balki barcha turkiy davlatlar nazarda tutilganini bayon etishgan.

Turkiy integratsiya makonining shakllanishi ko'p yillik tarixga ega bo'lib, u nafaqat til, madaniyat va tarixiy meros mushtarakligiga, balki turkiy xalqlarning boy ma'rifatparvarlik va intellektual tafakkur an'analari ham tayanadi. XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi jadidlik harakati madaniy va ma'naviy yaqinlashuv g'oyalari shakllanishida alohida o'r'in tutdi. Uning namoyandalari ta'lim, ilm-fan, jamiyatni modernizatsiya qilish va turkiy xalqlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash tarafdori bo'lgan.

Bugungi kunda Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida kechayotgan jadal integratsiya jarayonlari shunchaki siyosiy yoki iqtisodiy zarurat emas, balki ko'p asrlik tarixiy asos va teran intellektual tafakkurning mantiqiy davomi, desak to'g'ri bo'ladi. Turkiy dunyoning birlashishi g'oyasi nafaqat til va madaniyat mushtarakligiga, balki eng avvalo, bundan bir asr oldin po'ydevori qo'yilgan ma'rifatparvarlik an'analari tayanadi. Ya'ni, jadidlik harakati integratsiyani intellektual beshigi hisoblanadi.

TDT faoliyatining yana bir asosiy maqsadi a'zo davlatlar — Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkiya va O'zbekiston o'rtasida har tomonlama hamkorlikni rivojlantirishdan iborat. Ustuvor vazifalar qatoriga o'zaro ishonch va yaxshi qo'shnihilikni mustahkamlash, tashqi siyosiy pozitsiyalarni muvofiqlashtirish, shuningdek, savdo-iqtisodiy, transport, energetika va madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlikni kengaytirish kiradi. Savdo va investitsiyalar uchun qulay sharoit yaratish, ilmiy-texnik hamkorlikni rivojlantirish va mintaqa aholisi turmush darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Raqamlar mavjud holatning tiniq ko'zgu-sidiri. 2019–2025-yillar davomida Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan hamkorlikni chuqurlashtirishga qaratilgan 116 ta tashabbus ilgari surildi. Eng muhimi, bu takliflar qog'ozda qolib ketmadi — ularning 64 tasi to'liq amalga oshirildi, qolganlari esa yakuniy bosqichda turibdi. Bu ko'rsatkich O'zbekistonning turkiy makonda integratsiya jarayonlariga nisbatan tizimli va natijaga yo'naltirilgan yondashuvini ko'rsatadi.

Turkiy davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar izchil o'sib bormoqda. 2025-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistonning TDT davlatlari bilan tovar ayirboshlash hajmi ilk bor 10,8 milliard dollardan oshdi. Qozog'iston va Turkiya mamlakatimizning asosiy savdo sheriklari sifatida qolmoqda, ammo Ozarbayjon va Qirg'iziston bilan ham savdo dinamikasi yuqori. Iqtisodiyotning "qon tomirlari" bo'lgan transport sohasida ham ulkan qadamlar tashlandi. Masalan, O'zbekiston tashabbusi bilan "e-Permit" va "Raqamli TIR" joriy etilishi ortidan yuk tashish jarayonlari raqamlashtirildi, byurokratik to'siqlar kamaytirildi. Bo'xona jarayonlari soddalashtirilib, tranzit salohiyati keskin oshirildi.

O'zbekiston tashkilot doirasida madaniy-gumanitar aloqalarni yangi bosqichga olib chiqdi. Qo'qon shahrining "Turkiy dunyo turizm poytaxti" deb e'lon qilinishi va "Tabarruk ziyorat" loyihasining ishga tushirilishi mintaqada ziyorat turizmining jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Yoshlar siyosatida esa Turkiy universitetlar uyushmasi va Yosh yetakchilar forumlari orqali yangi avlod turkiy ziyolilari va tadbirkorlari qatlami shakllantirilmog'da. Ayniqsa, kosmik soha va mudofaa sanoatidagi hamkorlik ishtirokchi davlatlarning yagona texnologik makon yaratish yo'lidagi qat'iyatini ko'rsatadi.

2022-yilgi Samarqand sammitidan so'ng boshlangan O'zbekiston raisligi tashkilot tarixida buriilish nuqtasi bo'ldi. Ilk bor raislik davri uchun kompleks konsepsiya va tadbirlar rejasini ishlab chiqildi. Raislik doirasida 100 dan ortiq yirik tadbirlar o'tkazilib, hamkorlikka institutsional va izchil tus berildi.

Turkiston sammiti turkiy davlatlarning asrimizning eng dolzarb chaqiriqlariga javobi bo'ladi. Zero, sammitda raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt sohasida hamkorlikni chuqurlashtirish, qo'shma innovatsion ekotizimlarni yaratish, zamonaviy texnologiyalar davri uchun yuqori malakali kadrlar, mutaxassislar tayyorlash, geosiyosiy keskinlik sharoitida mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash masalalariga ustuvor ahamiyat qaratiladi.

Turkiston sammiti ramziy ma'noda jadidlar intilgan o'sha buyuk maqsadlarning zamonaviy ko'rinishidir. Turkiston shahrining "Turkiy dunyoning ma'naviy poytaxti" deb e'tirof etilishi ham bejiz emas. Zero, bu muqaddas zamin asrlar davomida turkiy tafakkurning markazi bo'lib kelgan va bugungi kunda u yana bir bor tarqoq zanjirlarni birlashtiruvchi nuqtaga aylanoqda. Shu ma'noda, Turkiy integratsiya — bu vaqtinchalik konyunktura emas, balki tarixiy adolatning tiklanishidir. Jadid bobolarimiz boshlagan ma'rifatparvarlik harakati bugungi kunda siyosiy va iqtisodiy qudrat bilan to'ldirilmoqda. Global dunyodagi keskinliklar sharoitida bizning eng katta kuchimiz — tarixiy merosimiz va intellektual tafakkurimiz mushtarakligidir.



AVVAL IQTISOD...

Boshlanishi 1-sahifada.

Neoklassik maktab iste'molchining ratsional xulq-atvori, talab va taklif muvozanati hamda bozor narxlarining tabiiy muvozanat nuqtasiga intilishini matematikaviy tarzda ifodaladi.

Alfred Marshall esa bu g'oyalarni birlashtirib, neoklassik sintezni yaratdi va bugungi kunda ham darsliklardan joy olgan talab-taklif egri chiziqlarini ishlab chiqdi.



XX asrning eng muhim iqtisodiy hodisasi – 1929–1933-yillardagi Buyuk Depressiya neoklassik maktabning “bozor o'zi barcha muammolarni hal qiladi”, degan qoidasini shubha ostiga qo'ydi. Aynan shu tarixiy kesimda britaniyalik iqtisodchi Jon Maynard Keynes sahnaga chiqdi va 1936-yilda nashr etilgan “Bandlik, foiz va pul bo'yicha umumiy nazariya” asarida mutlaqo yangi yondashuv taklif qildi. Keynes ta'limotining mohiyati shundan iboratki, bozor o'z-o'zini tartibga solishga har doim qodir emas; retsessiya davrida yig'ilib qolgan talabni rag'batlantirish uchun davlat xarajatlarini oshirish va soliqlarni kamaytirish zarur. Ushbu “fiskal siyosat” vositasi orqali hukumat iqtisodiyotni depressiyadan chiqarishi mumkin.

Ikkinchi Jahon urushidan keyingi davrda keynschilik g'arbiy mamlakatlarda hukmron iqtisodiy mafkuraga aylandi. “Farovonlik davlati”, ijtimoiy kafolatlar tizimi, davlatning investitsiya dasturlari – bularning barchasi keynschilik tamoyillarida o'z iqtisodiy asosini topdi. 2008–2009-yillardagi global moliyaviy inqiroz va COVID-19 pandemiyasi davrida hukumatlarning keng ko'lamli iqtisodiy rag'batlantirish dasturlari aynan keynscha yondashuv asosida amalga oshirildi.

1970-yillar stagflyatsiyasi bir vaqtning o'zida iqtisodiy o'sishning to'xtashi va yuqori inflyatsiya – keynschilik nazariyasining qiyinchiliklarini ko'rsatdi. Bu sharoitda Milton Fridman boshchiligidagi Chikago maktabi va Avstriya maktabi (Fridrix fon Xayek) o'z g'oyalari bilan old o'ringa chiqdi.

Monetarizm asosiy g'oyasiga ko'ra, inflyatsiya – bu har doim va hamma joyda pul hodisasi. Pul massasini nazorat qilish iqtisodiy barqarorlikning asosiy sharti hisoblanadi. Xayek “bilimlar tarqoqligi” tushunchasini ilgari surib, hech qanday markaziy organ bozor narxlarini bergan axborotning to'liq o'rnini bosa olmasligini isbotladi. Bu g'oyalar 1980-yillarda Reygan va Tetcher davrida amalga oshirilgan neoliberal islohotlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qildi.

XX asrning oxiri – XXI asrning boshida iqtisodiyot nazariyasida inqilob ro'y berdi: psixologiya va iqtisodiyot kesishuvi bo'lgan xulq-atvor iqtisodiyoti vujudga keldi. Daniel Kaneman va Amos Tverski o'tkazgan tajribalar shuni ko'rsatdiki, odam neoklassik nazariya taxmin qilganidek to'liq ratsional emas. Odam xato kognitiv qo'llar, his-tuyg'ular va ijtimoiy me'yorlar ta'sirida qarorlar qabul qiladi. “Turtki” (Nudge) nazariyasi, yo'qotishdan qo'rqish, status-kvoga moyillik va boshqa tushunchalar iqtisodiy siyosatda ham qo'llana boshladi. Bugungi kunda bir qator davlatlar aholini sog'lom ovqatlanish, pensiya jamg'armalari va energiya tejashga “majburlamay rag'batlantirish” uchun xulq-atvor iqtisodiyotining kashfiyotlaridan foydalanmoqda. Institutsional maktab (Torsteyn Veblen, Jon Kommons, Duglas Nort) qonunlar, an'analar, ijtimoiy me'yorlar va institutsional tuzilmalar iqtisodiy rivojlanishga qanday ta'sir qilishini o'rganadi. Nort o'zining tadqiqotlarida tarixiy ma'lumotlar asosida institutlar turli mamlakatlarning rivojlanish yo'llarini qanday farqlantirganini ko'rsatib berdi.

XXI asrning eng dolzarb muammolaridan biri iqlim o'zgarishi va atrof-muhit degradatsiyasi yangi iqtisodiy yondashuvlarni talab qildi. Ekologik iqtisodiyot an'anaviy iqtisodiyot ko'pincha e'tiborsiz qoldiradigan tashqi ta'sirlar (eksternaliyalar), resurslarning tugashi va ekotizim xizmatlarining qiymatini tahlil qilishga qaratilgan. “Ko'k o'sish”, uglerod soliqlari, emissiya savdo tizimlari – ekologik iqtisodiyotning amaliy natijalari.

Iqtisodiyot nazariyasidagi g'oyalarni evolyutsiyasini ko'rib chiqar ekanmiz, bir muhim qonuniyat ko'zga tashlanadi: har bir yangi maktab avvalgi maktabning kamchiliklariga

javob sifatida vujudga kelgan va yangi tarixiy sharoitlarda yangi savollarni qo'ygan. Klassik maktab bozor erkinligini asosladi, keynschilik bozor muvozanatsizliklarini ko'rsatdi, monetarizm inflyatsiyani tushuntirdi, xulq-atvor iqtisodiyoti esa ratsionallikni sinab ko'rdi. Zamonaviy iqtisodiy siyosat ko'pincha bu maktablarning “kokteyli” hisoblanadi: iqtisodiy sikl boshqaruvida keynscha yondashuv, pul-kredit siyosatida monetarizm tamoyillari, soliq siyosatida taklif tomon iqtisodiyoti va ijtimoiy dasturlarda xulq-atvor iqtisodiyotining kashfiyotlari birgalikda bo'lgan.

Ayniqsa, O'zbekiston uchun bu maktablar qimmatli ahamiyatga ega. Mamlakatimiz bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonini davom ettirmoqda, yangi institutlar shakllanmoqda, iqtisodiy siyosat takomillashmoqda. Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasining eng yaxshi yutuqlari va O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlarini birlashtirgan yondashuv eng samarali natijalarni berishi mumkin. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, g'oyalar evolyutsiyasi to'xtamaydi. Bugun biz sun'iy intellektning iqtisodiyotga ta'siri, kriptovalyuta va blokcheynning moliya tizimini o'zgartirib yuborishi hamda iqtisodiy tengsizlikning o'sib borayotgan muammolari bilan yuzma-yuz turibmiz. Iqtisodchilarning vazifasi – bu yangi muammolarga yangi, ijodiy yechimlar topishdir.


ENG TEZ O'SAYOTGAN SOHA

Iqtisodiyot inson faoliyatining eng tez o'sayotgan sohasidan biridir. Aholi soni o'sishi va turmush darajasining yuksalib borishi iqtisodiyot oldiga bir qator muammolarni qo'yadi. Iqtisodiy maktablar (qarashlar) bu muammolarga javob topishga turli tomondan yondashib keladi.

O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda deyarli barcha iqtisodiy maktablar ta'limotlarining o'rni va ahamiyati bor. Hozirgi paytda neoklassika maktabining nufuzi baland bo'lib, u “iqtisodiy meynstrim” degan nom ham oldi. Uning asosida individualizm va ratsionallik yotadi, resurslarni taqsimlash va baholash shaklida bozor mexanizmi muhim ahamiyatga ega, raqobat iqtisodiy o'sish lokomotivi deb qaraladi.

Iqtisodiy va nazariy qarashlar jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida iqtisodiy jarayonlarning xususiyati, iqtisodiyotni tartibga solish yo'llari, ratsional qarorlar qabul qilish, xulq-atvor omillari, institutlar, qonunlar va ijtimoiy me'yorlar, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish muammolarini o'rta qo'yadi. Ayniqsa, iqtisodiy o'sish, kambag'allikni qisqartirish va rivojlanayotgan mamlakatlarda uchun iqtisodiy-ijtimoiy siyosat ishlab chiqishga qaratilgan rivojlanish iqtisodiyoti (Development economics) mamlakatimizda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

2021–2025-yillarda O'zbekistonda YIM 81 foizga, jon boshiga YIM 65,3 foizga oshdi. 2023-yil 11-sentyabrda qabul qilingan “O'zbekiston-2030” strategiyasida 2030-yilga borib



O'zbekistonda YIM ishlab chiqarish hajmini ikki barobarga oshirish yoki 160 milliard dollarga yetkazish vazifasi qo'yilgan edi. 2030-yilda erishish mumkin bo'lgan marraga 4 yil oldin – 2026-yilda erishmoqdami. 2024-yilda YIM 115 milliard dollar bo'lsa, 2025-yilda 147 milliard dollardan oshdi, ya'ni bir yilda o'sish 32 milliard dollardan yuqori bo'ldi. Bunday yuqori sur'atda o'sish ilgari kuzatilmagan edi. Buning qator sabablari bor, albatta. Birinchidan, iqtisodiy o'sish mo'ljallangan 6,5 foizdan yuqori bo'ldi. Ikkinchidan, yashirin iqtisodiyotning 10 milliard dollari legallashtirildi, ya'ni YIMga kiritildi. Uchinchidan, YIMni hisoblash metodologiyasiga bir qator o'zgarishlar kiritildi.

2024-yil va avvalgi davrlar uchun YIM Xalqaro valyuta jamg'armasi tavsiyasiga ko'ra qayta hisoblandi. Natijada 2024-yil uchun O'zbekiston iqtisodiy holati 115 milliard emas, balki 121,4 milliard ekan qayd etildi. Demak, bu o'sish metodologik o'zgarishlar va hisobotlarni aniqlashtirish bilan bog'liq holda amalga oshirildi. Chunki YIMga byudjetdan tashqari jamg'armalar xarajatlari kiritiladigan, yangi xizmatlar va soliq organlari ma'lumotlari ham hisobga olinadigan bo'ldi, ilgari faqat davlat byudjeti xarajatlari kiritilardi.

Gap shundaki, ishlab chiqarish jarayonidagi barcha xarajat va daromadlar birorta hisobot bazasida o'z



Nurislom TO'XLIYEV,
akademik

ifodasini topishi kerak. Albatta, bunday baza YIM hisoblanadi. Hisobga olinmagan zaxiralarda sanoatda ham, qishloq xo'jaligida, qurilish va xizmat ko'rsatish sohaslarida ham bor. Yangi xizmat turlari hisoblanadigan kuryerlik, keytering, ovqatlanish, advokatlik, yuridik xizmatlar, kargo, yuk tashish, vositachilik xizmatlari ilgari YIMga kiritilmagan yoki yashirin iqtisodiyot tarkibida bo'lgan.

Yoki qishloq xo'jaligini olaylik. Birgina 2024-yilda 252 ming gektar yer maydoni auksion orqali sotilib, ijaraga berilgan. Bu yerlarni o'zlashtirish uchun shudgorlash, sug'orish, mineral o'g'itlardan foydalanishdan tashqari, urug'lik va mehnatga haq to'langan, yetishtirilgan mahsulot sotilgan. Demak, bu xarajat va daromadlar hisobga olinishi lozim. Bu to'g'ri, jahon tajribasida bor amaliyot.

O'zbekiston Prezidentining 2026-yil 26-fevralda “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni bilan 2023–2025-yillarda erishilgan ko'rsatkichlar va o'tkazilgan baholash asosida yangidan ishlab chiqilgan, 2026–2030-yillarga mo'ljallangan “O'zbekiston-2030” strategiyasi tasdiqlandi.


Xo'sh, kelgusi besh yilda milliy iqtisodiyotimiz hajmini 240 milliard dollargacha yetkazish imkoniyatlari bormi? Ha, bor. Buning uchun nima qilish kerak?

Buning uchun davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 26-dekabrda Parlamentga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, zamonaviy texnologiyalarga o'tish, kadrlarni ilim-fan va innovatsiyalarga asoslangan zamonaviy kasblarga tayyorlash, sanoatda elektronika va elektrotexnika, biokimyo va polimerlar, farmasevtika, mashinasozlik kabi yuqori qo'shimcha qiymat yaratadigan sohalarni rivojlantirish, IT, sun'iy intellekt, fintex, konsalting, transport-logistika kabi katta daromad keltiradigan servis sohaslarini ko'paytirish, qishloq xo'jaligida bionijeriyadan foydalanish, ilg'or agrotexnika va suv tejaydigan usullarga o'tish, ta'lim va tibbiyot sifatini yangi bosqichga olib chiqish, “yashil energetika”, chiqindisiz ishlab chiqarishga o'tish talab etiladi.

Bular esa yangi iqtisodiy modellarga o'tishni talab qiladi. Bugun innovatsion iqtisodiyot, yashil iqtisodiyot, kreativ iqtisodiyot, raqamli iqtisodiyot, sirkulyar iqtisodiyot, shering iqtisodiyoti kabi yangi ishlab chiqarish modellari yangi o'sish nuqtalari bo'lib maydonga chiqmoqda. Ular an'anaviy chiziqli iqtisodiyotga zid emas, balki alternativ (muqobil) yangi o'sish omillaridir.

“SOYA”DAN QANDAY CHIQLADI?

Bugun yashirin (xufiyona) iqtisodiyot bo'yicha ham talablar o'zgardi. Endilikda yashirin iqtisodiyot “kuzatilmaydigan iqtisodiyot” deb atalib, u norasmiy, yashirin va noqonuniy turlarga ajratiladigan bo'ldi. Kuzatilmaydigan iqtisodiyotning xufiyona deb atalgan turini alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Mamlakatimizda kuzatilmaydigan iqtisodiyot darajasi 45-50 foizdan 28 foizga pasaytirildi. Kelgusi besh yilda uning darajasi yanada qisqartiriladi va 23 foizga tushiriladi. Buning uchun naqdsiz to'lov ulushi 75 foizdan oshadi. Rasmiy



sektorda band bo'lganlar hozirgi 8,5 milliondan 14 million nafarga yetkaziladi.

Norasmiy iqtisodiyot bu uy xo'jaliklari yoki jismoniy shaxslar tomonidan ro'yxatdan o'tmagan holda amalga oshiriladigan ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish turidir. U oila a'zolarini mehnatga jalb qilish, bozorlarni to'ldirish va raqobat muhitini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun uni legallashtirish, YIMga kiritish mumkin. Bu jarayon asosan tanlama kuzatuvlar o'tkazish, soliq va moliyaviy tekshiruvlar, ro'yxatga olish, litsenziyalar berish bo'yicha ma'lumotlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Noqonuniy faoliyat turining yo'rig'i boshqa. Uning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirining nisbatan past darajasi hisobga olinib, xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda, uning darajasi rasmiy statistikada baholanmaydi, ya'ni YIM hajmiga kiritilmaydi. Yashirin iqtisodiyot esa hisobotda ataylab soliq bazasini yashirin ko'rsatishdir. Bunday faoliyat turlariga nisbatan ma'muriy choralar ko'riladi.

Demak, iqtisodiy o'sishni baholashda turli ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish xarajatlari va daromadlari aniq hisobga olinishi lozim. Shundagina biz milliy iqtisodiyotimizning joriy holati, o'sish tendensiyalari, imkoniyati va zaxiralari to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'lamiz. Ko'rinib turibdiki, sohada hali to'liq ishga tushirilmagan imkoniyat va omillar, zaxiralarda mavjud.

TAVALLUD

BOTUNING BOTINI

Ko'nglim yosh, ruhim yosh, kuchim yosh, Yash yo'llar, yosh gullar izlayman. Orqaga tortganga hadyam – tosh, Har choq men ilgari undayman.

Ushbu satrlar muallifi shoir va yozuvchi, jamoat arbobi sifatida respublika maorifi, fani va madaniyatini rivojlantirish yo'lida



jonbozlik ko'rsatgan Botu – Mahmud Xodiyev qalamiga mansub.

Botu 1904-yil 15-mayda Toshkent shahridagi Qaldirg'och mahallasida to'quvchilar oilasida dunyoga kelgan. Dastlabki ta'limni eski madaniyat maktabida olgach, Moskvadagi Pokrovskiy nomli institut qoshidagi ishchilar fakultetida (1921), so'ngra Moskva Davlat universitetining iqtisod fakultetida tahsil olgan. U o'z ish faoliyatini o'zi asos solgan “Farg'ona” gazetasida boshlab, keyinchalik bir muddat “Alanga” jurnalida bosh muharrir vazifasida ishlaydi. 1928-yildan to 1929-yili qamoqqa olinguncha O'zbekiston Xalq maorifi komissarining o'rinbosari sifatida faoliyat yuritgan.

Uning ilk she'rilarida Munavvar qori va boshqa taniqli jaddilarning ta'siri ko'zga tashlanadi. Dastlab lirik yo'nalishda bo'lgan Botu she'riyatida asta-sekin xalqning ozod, porloq kelajak uchun kurashi bosh motiv darajasiga ko'tarilib boradi. “Hayajonlanish”, “Qo'zg'alon”, “Bizning tovush”, “Isyon”, “O'sha kun”, “Yosh yurak to'lqinlari” kabi she'rleri fikrimizning dalilidir.

Uning bor-yo'g'i ikkita kitobi – “Umid uchqunlari”, “To'lqin tovushlari” nashr etilgan. Asarlari “Bilim o'chog'i”, “Inqilob”, “Maorif va o'qitg'uvchi” jurnallarida e'lon qilingan. “Hayit harom bo'ldi” (1929), “Tursun” (1930) kabi hikoyalarda eskilik bilan yangilik o'rtasidagi kurash, ziddiyat o'z ifodasini topgan.

Botu sovet idoralarda xizmat qilganiga qaramay, qatag'onning qattol mashinasi uni va oilasini ham chetlab o'tmadi. U 1929-yili “xalq dushmani” sifatida qamoqqa olinib, Solovki oroliga surgun qilindi. “Katta terror” jarayoni boshlangach, uning ishi qayta ko'rilib, hukm o'zgartiriladi va 1938-yil mayda qatl etiladi.

Sovet siyosati aqidasiga ko'ra, nafaqat “jinoyatchi” balki uning yaqinlari ham shafqatsiz jazolanishi shart edi. 1941-yili rafiqasi Valentina Vasilyeva ham hibsga olinib, 10 yil qamoq jazosini o'tashga hukm qilinadi. O'g'li Erki Xodiyevga 1942-yili ishonchsizlik bildirilib, urushdan qaytarib yuboriladi va to'rt yil O'rtaovul qamoqxonasida jazo muddatini o'taydi.

Iste'dodli adib Botu ijodi davrimizda ham o'z qiymati va qadrini yo'qotmagan. Milliy adabiyotimiz rivojida adibning ham munosib hissasi bor. Shu jihatdan bugun ijodkor xotirini yod etish va yangi tadqiqotlar olib borish muhim masala hisoblanadi.

Gulchehra UMAROVA



“Ko'p pul topish – jasorat, pulni saqlay bilish – donishmandlik, oqilona sarflash – san'at.”

Bertold AVERBAX



Boshlanishi 1-sahifada.

Moddiy farovonlik va ma'naviy yuksalishni barobar olib ketish ilosizday edi nazarimizda.

So'nggi o'n yillik "bizning ko'chada ham bayram" davri bo'ldi. Mamlakatimizda kitob o'qish madaniyatini keng targ'ib qilish, yangi nashrlar va tarjimalarni yo'lga qo'yish hamda aholi orasida kitobga qiziqishni kuchaytirish, kutubxonalar va ta'lim dargohlarini kasbiy va sohaviy adabiyotlar bilan ta'minlash, kutubxonachilarni munosib rag'batlantirish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirildi. Siz ta'kidlagan kasb bayrami ham Prezidentimiz tashabbusi bilan belgilandi. Bugun nafaqat Milliy kutubxonadagilar, balki tizimdagi 200 dan ortiq kutubxona xodimlarida ham ishchan kayfiyat hukmron.

– **Milliy kutubxona otaxon ziyo maskani hisoblanadi. Tabiiyki, bu dargohga davlat darajasida e'tibor qaratiladi. Bu kommunikatsiya, raqamlashtirish, ta'minot masalalarida yaqqol ko'rinadi. Hududlardagi kutubxonalar bilan qanday tafavut bor?**

– O'zbekiston Milliy kutubxonasi xalqqa xizmat ko'rsatayotganiga 156 yil bo'ldi. Bu Markaziy Osiyoda birinchi tashkil etilgan ziyo maskani hisoblanadi. 1870-yil may oyida 2200 dan ortiq kitob yig'ilib, kutubxona fondining asosi yaratilgan edi. Bugungi kunda 8 milliondan ziyod manbaga ega bo'lib, 14 ta hududiy hamda tuman-shaharlardagi axborot-kutubxona markazlari bilan yagona tizimni tashkil qiladi.

Yetakchilikning asosiy shartlaridan biri – barchadan ilg'or bo'lish va hammadan ko'proq mehnat qilish. O'zbekiston Milliy kutubxonasi 1998-yildan elektron katalogni shakllantirish boshlangan. Hozirda bu katalog yordamida bosh butun dunyodan murojaat qilayotgan kutubxonalar masofadan xizmat ko'rsataymiz. Kutubxonada raqamlashtirish jarayonlari jadal davom etmoqda. Rivojlanish sur'ati hududlarimizdagi kutubxonalarda ham teng olib borilyapti.

2017-yili kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha Prezident qarori qabul qilindi. Bu hujjat sohaga doir keyingi qarorlar silsilasini boshlab berdi. Tizimda tub burilish yasaldi: kutubxonalar ta'mirlandi yoki yangi binolarga ko'chirildi, fondi yangi adabiyotlar bilan boyitildi. Kutubxonachilar maoshida ham sezilarli ko'tarilish kuzatildi. Davlat rahbarining e'tiborini ko'rgan viloyat rahbarlari, turli darajadagi amaldorlar ham kutubxonalariga ko'mak bera boshladi.

Umumiy holat namunal bo'lsa-da, maxsus kutubxonachilik texnikalari borasida Milliy kutubxonada bor imkoniyatlar hammada ham mavjud emas, buni to'g'ri qabul qilish kerak: yangi texnologiyani olib kelish, uni ishlatish uchun vaqt, mablag', qolaversa,



“Shunday odamlarni axtaringki, ular bilan suhbat qurish yaxshi kitob o'qish bilan barobar bo'lsin. Shunday kitoblarni axtaringki, mutolaasi faylasuflar suhbatiga teng bo'lsin.”

Frensis BEKON

18-MAY - XALQARO MUZEYLAR KUNI

Bu yil mamlakatimizda norasmiy muzeylar yili bo'ldi, desak adashmaymiz. Muhtaram Prezidentimiz tashabbusi bilan bunyod etilgan Islom sivilizatsiyasi markazi hamda Imom Buxoriy ziyoratgohi majmualari tarkibida yangi muzeylar ishga tushirildi. Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligi munosabati bilan Temuriylar tarixi davlat muzei rekonstruksiya qilindi. Nodir qo'lyozmalarni raqamlashtirib, kitobxonlarga taqdim etayotgan Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Muhimi, ushbu muzeiyog'lar bugun jahon ahlini o'ziga chorlab, nufuzli tanlov va reytinglarda yetakchilar safidan o'rin olmoqda.

Barcha sohalarida bo'lgani kabi muzeylarda ham ixtisoslashuv jadal davom etmoqda. Jumladan, Navoiy shahridagi Tog'-kon metallurgiya kombinati tarixi muzei mintaqaning foydali qazilmalar sanoati tarixini o'zida mujassam etadi. Umumiy maydoni 450 kvadrat metr bo'lgan, uchta zaldan iborat ushbu muzeyda bir yarim mingdan ortiq eksponat mavjud.

Muzeyning birinchi zali eneolit, ya'ni, mis-tosh davridan temuriylar hukmronligigacha bo'lgan davrni qamrab olgan. Dastlab viloyatning Uchquduq tumanidan topilgan "Tosh o'rmon" tasviri tushirilgan yirik polotno sayyohlarni o'ziga jalb etadi. Qizilqum sahrosining o'rni bir paytlar ulkan dengiz bo'lgan. Vaqt o'tib suv chekingach, keyingi bosqichdagi daraxtlar toshga aylangan. Bu "toshdaraxtlar" ochiq osmon osti muzeiyini paydo qilgan.



KITOB KELTIRGAN BAXT

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi direktori, "Mehnat shuhrati" ordeni sohibasi Umida TESHABOYEVA bilan suhbat



kadr tayyorlash zarur. Shunga qaramay, zamonaviy texnika yutuqlari Farg'ona va Jizzax viloyatlari kutubxonalarida sinab ko'rilmog'chi.

– **Ushbu o'zgarishlarga qator hududlarda guvoh bo'laymiz. Yana bir e'tiborli jihati, odamlarimiz orasida kitobga, kitobxonlarga munosabat ham tubdan o'zgardi. Shunday bo'lsa-da, "Yoshlar kitob o'qimay qo'ydi, telefonda bosh ko'tarmaydi", degan qarashlar ham bor. Siz bunga qanday munosabatdasiz?**

– Yaqin o'tmishimizda shunday bir davr bo'ldiki, haqiqatan ham kitobdan uzoqlashdik. Bunda faqat odamlarni ayblab bo'lmaydi. Kitob o'qish uchun tirikchilik tashvishlaridan yengillab, odam bo'sh vaqt topishi, diqqatini jamlashi kerak. Bu shaxsiy harakatdan tashqari davlatning umumiy farovonligiga ham bog'liq. So'nggi yillarda xalqimizda qo'shimcha mablag' ham, bo'sh vaqt ham paydo bo'ldi. Xorijga sayohat va ziyorat maqsadida yo'l olayotgan o'zbekistonliklari soni yildan yilga ortib bormoqda. Yengil avtomobil kirib bormagan xonadon qolmadi hisob. Hatto, eng chekka qishloq-ovullarda ham uy-ro'zg'or ishlari maishiy texnika vositalari zimmasiga yuklatilyapti. Davlat va xususiy bog'chalar soni va qamrovi ortib,

onalarimizning ham qo'li bo'shayapti. Xullas, endi adabiyot, san'at, ma'naviyat, kitob haqida o'ylaydigan paytlar keldi.

Prezidentimiz xalqimizni mutolaaga qaytardi. Davlat rahbari kitob haqida, mutolaaga haqida bot-bot ta'kidlab turgandan keyin, o'qimay bo'ladimi? "O'qib shahar olib berarmiding?", "Kitob qo'ltiqib yurguncha, mol-qo'yga qara", deguvchi ota-onalarning ham dunyoqarashi o'zgarib, o'zlari ham kitob varaqlashga tushib ketganini kuzatyapmiz.

Yoshlarimizning o'qishi biznikidan farq qiladi-da. Bizda an'anaviy kitobdan boshqa tanlov bo'lmagan. Bugunning avlodi elektron kitob o'qiyapti, audiokitob tinglayapti, kerak bo'lsa, asarlarga ishlangan sun'iy intellekt videolarini tomosha qilyapti. Garchi yigit-qizlar ko'cha-ko'yda, jamoat transportlari, uyda telefoniga bog'lanib qolganday ko'rinsada, ular ko'rayotgan kontentlar o'zgaragan. Ya'ni, surat avvalgiday, mohiyat esa yangi. Qolaversa, bugun til o'rganishda ham vizual usullar yetakchilik qilyapti.

Ishonch bilan aytamanki, bugun yoshlar kitob o'qiyapti. Aks holda, kutubxona zallari gavjum bo'lmasdi, kitob do'konlari kassasida navbat hosil bo'lmasdi, ijtimoiy tarmoqlarda o'n minglagan obunachisi bor kitobxonlar guruhlari, buklogerlarning telegram, instagram sahifalari gullab-yashnamasdi.

Gap kelganda aytib o'tay, agar yoshlar kitob o'qimaganida, biz noyob kitoblarni chet ellik hamkorlarimizdan so'rab olmasdik. O'zbekiston Milliy kutubxonasi 30 dan ziyod xalqaro tashkilotlar, xorijiy kutubxonalar bilan hamkorlikda ishlab kelyapti. Asosiy faoliyatimiz resurslar almashinuvidir. Kitobxonlar so'roviga ko'ra bosmasini, imkon bo'lmasda elektron shaklda kerakli manbalarni yetkazib beryapmiz.

– **Yangi yil arafasida muhtaram Prezidentimizga Yangi Toshkentda bunyod etilayotgan O'zbekiston Milliy kutubxonasi loyihasini sharhlab berdingiz. Bu noyob kutubxona ochilishini minglab kitobxonlar qatori biz ham intizor kutuyapmiz. Shu haqda ham ma'lumot bersangiz.**

– Bu tarixiy tashrif bo'ldi. Tabiiyki, hayotimdagi eng unutilmas voqea bo'lib qoldi. Bugungi kunda qariyb 4 gektar maydonda Milliy kutubxonaning yangi binosi barpo etilmoqda. Inshootda milliy me'morlik an'analari va zamonaviy arxitektura yechimlari uyg'unlashtirilgan. To'rt qavatli binolarning umumiy maydoni 30 ming kvadrat metrdan ziyod bo'lib, bir vaqtning o'zida 1 ming 420 nafar kitobxonaga xizmat ko'rsatish imkonini beradi. Quvonarlisi, kutubxona fondlarini saqlash, hisobga olish, xavfsizligini ta'minlash va sterilizatsiya qilish uchun yuqori texnologiyali maxsus xonalar tashkil etiladi.

Majmua ko'p funksiyali bo'lib, xalqaro va milliy yirik kutubxonalarining elektron bazalariga onlayn ulanish imkonini yaratiladi. Ko'zi ojiz fuqarolar uchun maxsus o'qish va tadqiqot muhiti yo'lga qo'yiladi. Shuningdek, tashrif buyuruvchilar uchun 300 o'rinni kafe, galereya, yengil sport o'yinlari maydonchalari va dam olish hududlari barpo qilinadi.

Muhtaram Prezidentimiz ushbu kutubxona Yangi Toshkentda barpo etilayotgan ta'lim va ma'rifat maskanlari tizimida muhim o'rin tutib, yosh avlodning intellektual rivoji uchun mustahkam zamin bo'lishini ta'kidladi. Ilm-fan va ma'naviyatga sarmoya kiritgan davlatning iqtisodiy salohiyati ham barqaror va yuqori bo'lishi qayd etildi. Zamonaviy kutubxona imkoniyatlaridan to'laonli foydalanish uchun xodimlar axborot texnologiyalari va xalqaro standartlarni chuqur o'zlashtirishi zarurligiga e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Milliy kutubxonasi hozirgi binosiga 2011-yilda ko'chgan. Ushbu bino loyihalashtirilganda kuniga 1000 nafargacha kitobxon kelishi mo'ljallangan. Ammo so'nggi yillarda bir kunda 2500 nafargacha foydalanuvchi tashrif buyuryapti. Imkon qadar stol-stul qo'yib, sharoit yaratishga harakat qilamiz. Ammo 2500 kishini kislorod bilan ta'minlash va boshqa masalalarda bino quvvati talabga javob berolmas ekan.

Juda ko'pchilik savol beradi: "Bu kutubxonachilarni, bino nima bo'ladi, Sizlar ko'chib ketasizlarmi?" Javob sifatida "yo'q" deymiz. Prezidentimiz bu masalaga urg'u berib, kutubxonaning filiali sifatida qolishini aytdi.

– **Jadidlar asos solgan "Turon" kutubxonasi haqida ham ma'lumot bersangiz...**

– Ushbu kutubxona ham Milliy kutubxonamiz tasarrufida. Abdulla Qodiriy ijod maktabi majmuasi tarkibidagi maxsus binoda faoliyat yuritayapti. Uzoq yillik sargardonlikdan so'ng kutubxona maxsus qurilgan, namunaviy loyihadagi binoga ega bo'ldi. Kitobxonlarni qabul qilish, fondlarni saqlash va boshqa masalalar e'tiborga olingan. Ushbu maskandagi bosma manbalar ham raqamlashtirilyapti.

Bugun kutubxonalarda bino, moddiy-texnik baza deyarli muammo bo'lmay qoldi. Lekin yana bir narsani aytishimiz kerak, restavratsiya-konservatsiya masalalari oqsaydi. Kutubxonalarimizda restavratsiya uchun maxsus bo'limalar yo'q. Restavrator kadrlar yetishmaydi. Masalan, Turkiyada kitoblar xastaxonasi rivojlangan. Bizda ham restavratorlar ishlayapti. Ammo ular Milliy kutubxonaning ehtiyojlaridan ortmayapti. Lekin Buxoro, Samarqand, Xorazm hamda "Turon" kutubxonasi nodir nashrlar, qo'lyozmalar, toshbosmalar doimiy ravishda restavratorlarning tekshiruviga muhtoj. Bu yerda faqat kutubxonachilar bilan ish bitmaydi.

Faqat kutubxonalarda emas, balki muzeylarda, arxivlarda ham shu muammo bor. Bularning yechimini axborot-kutubxona faoliyatini rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilayotgan yangi strategiyaga kiritganmiz. Umid qilamizki, masala o'z yechimini topadi. Chunki biz ko'p maqsadlar ro'yobga chiqishiga avvalbosh ishonmagan edik, ammo orzularimizdan ziyodasiga guvoh bo'ldik.

– **O'zbekiston Milliy kutubxonasi respublikada chop qilinadigan barcha bosma nashrlarni majburiy nusxada oladi. Bu, albatta, qonun bilan mustahkamlangan. Bu jarayonda fuqarolarimizning, ijodkorlarning ham tashabbusi bormi? Zero, eng yirik ma'rifat koshonasida kitobi bo'lishi, menimcha, har bir ijodkorga faxr bag'ishlaydi.**

– Haqiqatdan ham, oxirgi ikki yil ichida O'zbekiston Milliy kutubxonasi mualliflar, homiylar va yurtdoshlarimiz tomonidan kitoblarning hadyasi karvon-karvon bo'lib kelmoqda. Kuniga besh-olti nomdagi o'nlab kitob kutubxonaga sovg'a qilinadi.

Juda ko'p mualliflar majburiy nusxa berilgandan tashqari, o'zlari kelib, bir necha nusxada taqdim etadi. Kutubxonada taqdimotlar o'tkazish istagini bildiradi. Lekin shunaqa holatlar ham bor: muallif bergan kitobning majburiy nusxasi kelmaganda bo'ldi. Darrov qaysi nashriyotda chop etilgan bo'lsa, xat bilan chiqamiz. Kutubxona fondi to'ldirilishida hech qanday bo'shliq bo'lmasligi kerak-da.

Kutubxonaga olib kelingan kitob asrlar davomida qoladi. Yana bir narsa bor, daxldorlik hissi. Bugun fuqarolarimiz shaxsiy kutubxonasiyodagi noyob manbalarni, oilaviy meros sifatida ardoqlab kelinayotgan kitob va qo'lyozmalarni kutubxonamizga topshirmoqda. Chunki qadimiy manbalarni uy sharoitida saqlash vaqt o'tgan sari qiyinlashib boradi.

Yana bir xursand bo'ladigan jihatimiz, yurtdoshlarimiz bizga sovg'a qilishdan tashqari, bir qancha kitoblarni keltirib, viloyatlar, tuman-shaharlardagi kutubxonalariga yetkazishimizni iltimos qilishadi. Ular olib kelgan adabiyotlarni ko'rib, o'rganib chiqamiz va yetkazamiz.

– **Umida opa, ayol oilada va jamiyatda baravar baxtli bo'lishi mumkinmi?**

– Bundan o'n yil oldin bu savolni berganingizda, balki uzoq o'ylab qoldim. Bugun esa baralla "Ha!" deya olaman.

– **Unda armoningiz bo'lmasa kerak...**

– Bor... Dadamning men bilan bog'liq orzulari katta edi, oila davrasida, do'stlari bilan o'tirganida: "Xudo xohlasa, bu qizim o'zimginim izimdan borib, ham ilmiy ish qiladi, ham eng katta kutubxonada eng to'rt kutubxonachi bo'ladi", deganlarini eshitganman. Dadamning orzulari ushaldi, lekin...

– **Umida opa, bugungi suhbatimiz nihoyasiga yetgan yo'q. An'anamizdan chekinib, istisno tariqasida, Sizga so'ng-so'z bermaymiz. Qizg'in muloqotimizni Yangi Toshkentdagi yangi kutubxonada davom ettirish niyatidamiz. Sizga doimo ijobiy qahramonlar va baxtli murod-maqsadlar hamroh bo'lsin!**

Zarnigor IBROHIMOVA suhbatlashdi.



MANGULIK MUHRI

– Dunyo davlatlarining faqat uch-tasida tosh o'rmon mavjud, – deydi muzey direktori, "El-yurt hurmati" ordeni laureati Akshagul Tulegenova. – Chili va Bolgariyadan keyin bunday noyob topilma bizda topildi. Suratni ko'rgandayoq shu o'rmonning tabiiy holatini tomosha qilishni istaydi odam.

Zal bo'ylab yurishda davom etar ekansiz, Sarmishsoy iyerogliflari tasviri, o'rdaksimon dinovavrning son suyagi, mis va temirdan yasalgan qadimgi qurollar, III-IV asrlarga oid qurol-aslaha, qilich va xanjarlarning asliga ko'zingiz tushadi.

Shuningdek, minerologiya ilmining otasi hisoblangan Abu Rayhon Beruniyga bag'ishlangan alohida

ko'rgazmada allomaning ma'dan-shunoslikka doir asarlari o'rin olgan.

Birinchi zalning Amir Temur davriga oid eksponatlar orasida esa cho'yanni eritib ishlangan har xil turdagi nodir buyumlar borki, bu metallurgiya sanoati bizga yangidan kirib kelmagan, bobomeros kasb ekanini anglatadi. Kombinatda uzoq yillar faoliyat olib borib, O'zbekiston Qahramoni, degan yuksak sharafta erishgan metallurglar haqidagi ma'lumotlar, soha rivojiga munosib hissa qo'shgan konchilarning ismi shariflari bitilgan faxriya kitobi zamonaviy sanoat shajarasini o'zida aks ettiradi.

Ikkinchi bo'lim bir guruh geologlarning 1950-yillarda Qizilqum sahrosida yirik uran va oltin zaxiralarini kashf etishlaridan boshlangan tarixiy davrni o'z ichiga olgan. Navoiy, Uchquduq va Zarafshon kabi shaharlarning bunyod bo'lish omillariga oid manbalar, O'zbekiston tuprog'idan olingan yuzdan ortiq qimmatbaho ruda namunalari, sohani rivojlantirishga bor iqtidorini sarflagan olimlar haqida ma'lumotlar va ularning ilmiy ishlari bayoni, kombinatni boshqargan barcha rahbarlarning hayoti va faoliyati, mehnat qahramonlarining yutuqlari, texnika-texnologiyalar taraqqiyotini yorituvchi foto-ko'rgazmalar

konchilik sanoatining rivojlanish bosqichlari bilan tanishtiradi.

– "XX-asr mo'jizasi" deya e'tirof etilgan Muruntov ochiq konining chuqurligi 700 metrga yaqinlashgan, – deb ma'lumot beradi Akshagul opamiz. – Bo'yiga besh, eniga esa uch yarim kilometrni egallagan Muruntov dunyoda oltin zaxirasi bo'yicha ikkinchi o'rinda, qazib olish bo'yicha esa to'rtinchi o'rinda turadigan juda yirik ochiq kareridir. Uchinchi zalimizda uning katta plandagi maketi joy olgan.

Ayniqsa, 270 tonnagacha ruda ko'taradigan, g'ildiragining o'zi ikki qavatli uy kattaligidagi BelAZ mashinalari va boshqa bahaybat texnika vositalarining pulatlashtirilgan kichik variantlari, ularning ishlash ko'lamiga oid maket va manbalar ko'pchilikda qiziqish uyg'otishi tabiiy.

– Muzeyimizning ikkinchi zalida joylashgan majlislar zalida oliy o'quv yurtlari jamoasi bilan hamkorlikda konferensiyalar, forumlar, uchrashuvlar o'tkazamiz, – deydi suhbat yakunida Tulegenova. – Eksponatlar tez-tez yangilanadi, ya'ni, boyitiladi. Bu yerga xorijiy mehmonlar ko'p kelishadi. Chunki qimmatbaho qazilma boyliklari, xususan, oltin jozibas ko'pchilikni o'ziga jalb qilganidek, yurtimizning geologik tarixi ham ahi dunyoga qiziq.

Muhayyo RUSTAMOVA



OLAM OLIMI



Piter XOVIT

Filipp AGIYON

Joel MOKIR

BEHBUDIY SAVOLIGA JAVOB izlagan nobelchilar

2025-yilda iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti bilan Joel Mokir "texnologik taraqqiyot orqali barqaror o'sish uchun shart-sharoitlarni aniqlagan" hamda Filipp Agiyon va Piter Xovit "kreativ destruksiya orqali barqaror o'sish nazariyasi" uchun taqdirlandi.

BARQARORLIK OMILI

Insoniyat tarixi davomida iqtisodiy turg'unlik ko'p asrlar mobaynida odatiy hol bo'lib kelgan. Faqat so'nggi ikki yuz yil ichida uzluksiz o'sish kuzatildi. Bu esa millionlab insonlarni qashshoqlikdan chiqarib, zamonaviy farovon jamiyatning shakllanishiga zamin yaratdi. Laureatlar aynan shu o'sishning asosiy manbaya innovatsiyalar ekanini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Yangi texnologiyalar, ishlab chiqarish usullari va mahsulotlar iqtisodiyotni doimiy yangilanishga majbur qiladi. Natijada, mehnat unumdorligi ortib, turmush darajasi yaxshilanadi va hayot sifati o'sadi.

JOEL MOKIR

1946-yilda tug'ilgan Joel Mokir iqtisodiy tarix va texnologik taraqqiyot o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq qildi. Uning fikricha, innovatsiyalar barqarorligi uchun inson faqat "Nima ishlaydi?" deb emas, balki "Qanday ishlaydi?" tarzida savol qo'yish kerak. Sanoat inqilobidan avval ko'plab ixtirolar mavjud bo'lgan, biroq ular chuqur ilm bilan takomillashtirilib borilmagan sababli uzoq muddatli o'sishni ta'minlay olmagani. Olim bilim, ochiq fikrlash va yangi g'oyalar uchun erkin muhit yaratish iqtisodiy taraqqiyotning asosiy sharti ekanini ko'rsatib berdi. Uning tadqiqotlari bugungi kunda ham innovatsion iqtisodiyot, ta'lim siyosati va texnologiya rivoji sohalarida muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

FILIPP AGIYON VA PITER XOVIT

Ikki olim 1992-yilda iqtisodiy o'sishning mashhur "ijodiy vayronkorlik" modelini ishlab chiqdi. Unga ko'ra, bozorga yangi va samarali texnologiya kirib kelganda, eski texnologiyaga tayangan kompaniyalar raqobatda yutqazadi. Bu jarayon "ijodiy", chunki u yangilik va taraqqiyot yaratadi. Shu bilan birga, u "vayronakor" hamdir. Zero, eski ishlab chiqarish tizimlari bozordan chiqarib yuboriladi. Olimlar ushbu jarayon iqtisodiy o'sish uchun zarur ekanini, ammo u jamiyatda ziddiyatlar ham keltirib chiqarishini ta'kidlaydi. Agar davlat va institutlar innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlamasa, o'z manfaatini yo'qotishdan qo'rqqan katta kompaniyalar taraqqiyotni sekinlashtirishi mumkin.

DOLZARBLIGI

Laureatlarning ishlari sun'iy intellekt, raqamli iqtisodiyot va biotexnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ularning nazariyalari innovatsiyalar faqat texnologiya emas, balki iqtisodiy erkinlik, raqobat va ochiq ilm-fan muhiti bilan ham chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatadi. Mukofot qo'mitasi raisi Jon Hassler ta'kidlaganidek: "Iqtisodiy o'sish o'z-o'zidan kafolatlanmaydi. Jamiyat innovatsiya va ijodiy vayronakorlik mexanizmlarini saqlab qolishi lozim. Aks holda insoniyat yana turg'unlikka qaytishi mumkin".

XULOSA

Ulug' jadid Mahmudxo'ja Behbudiy 1913-yilda matbuotda "Millatlar qanday taraqqiy etarlar?" degan masalani ko'targan edi. Oradan bir asr o'tib, Niderlandiya, Fransiya va Kanada fuqarolari bo'lgan uch professor ushbu savolga iqtisod sohasida javob topishga harakat qildi va buni uddaladi ham.

Jasmina ISROIL tayyorladi.

FIKR

QADIM QISHLOQ NOMINI QAYTARAYLIK!

O'z tarixiy nomini tabiiy ravishda yo'qotadigan, shuningdek, subyektiv tarzda yo'qotiladigan geografik obyektlar mavjud. U yoki bu joyning o'sha yerda yashovchi aholi tomonidan turli sabablarga bilan tashlab ketilishi va bora-bora nomning iste'moldan chiqishi uning unutilishiga va shunga muvofiq ravishda tarixiy toponimning ham yo'qolishiga, buning ortidan esa ushbu joy bilan bog'liq tarixning barham topishiga sabab bo'ladi. Subyektiv ravishda yo'qoladigan joy nomlari shu makonda istiqomat qilayotgan aholi talabi va hukumat qarorlari bilan tarixiy toponimning boshqa nom bilan almashtirilishi oqibatida yuz beradi.

Tarixiy toponimni boshqa nom bilan almashtirish holatlari sovet siyosatidan qolgan "meros". O'rta asrlarda kamdan kam joy nomi biror-bir hukmdor farmoni, qarori, og'zaki yoki yozma topshirig'i bilan shakllantirilgan yoki almashtirilgan. Shunday qilinganda edi, bizgacha yetib kelgan tarixiy joy nomlarida qanchadan qancha chalkashliklar yuz bergan bo'lardi. Joy nomlarining paydo bo'lishi, transformatsiyasi, yashovchanligi hech kimning aralashuvizis sodir bo'lib kelgan tabiiy jarayon hisoblanadi. Yangi paydo bo'lgan aholi punktlariga nom berish esa bundan mustasno.

Dunyoning ko'plab gumanitar ta'lim muassasalarida tarixiy toponimlarni o'rganadigan va o'rgatadigan sohalar, tadqiqot natijalarini e'lon qilib boradigan nufuzli ilmiy jurnallar mavjud. Toponimikada davlat siyosati aks etadi va u bir jihatdan davlat siyosatining targ'ibotchisi hamdir. Toponimikaning ushbu jihatini biz chor imperiyasi va sovet davrida boshimizdan kechirdik. Ko'plab mahalliy, tarixiy joy nomlari ruscha, sovetcha nomlar bilan almashtirilgan. Masalan, Chernyayevka, Skobolev (Farg'ona), Soldatskaya (Toshkent viloyatidagi Quyi Chirchiq tumani markazining sovetcha nomi), Sverdlov (Buxoro viloyatidagi Jondor tumanining sovetcha nomi), Sovetskaya (Buxoro

shahridagi Arabon ko'chasining sovet davridagi nomi), Fizkulturnaya (Buxoro shahridagi Xo'ja Bulg'or ko'chasining sovetcha nomi)... Yana yuzlab misollar keltirish mumkin.

Tarixiy toponimlarni zamonaviy yoki boshqa muvofiq deb topilgan nomlar bilan almashtirish jarayoni, afsuski, hamon davom etmoqda. Istiqomat qilayotgan aholining joy nomini almashtirish to'g'risidagi istak va talablarini inobatga olish tegishli me'yoriy hujjatlarda belgilab qo'yilgan. Biroq masalaning ma'naviy-ma'rifiy jihatlarini shunday noo'rin talablarni ilgari surishdan voz kechish kerak emasmikan, degan fikrga chorlaydi.

Keling, gapning indallosiga o'taylik. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi asrlar davomida "Xargo'sh" deb atalib kelgan joyning bugun kutilmaganda "Xayrxush"ga aylinishini qanday tushunish mumkin?

Bu eski nomni yangilagan ma'murlar tez fursatlarda sodda xalq orasida soxta etimologiyani ham tarqatib ulgurishdi. Nima emish, Xoja Abdullaxolig G'ijduvoniyo Xoja Bahouddin huzurlariga borsalar, muridlari ana shu qishloqqa kuzatib kelar, Xoja Bahouddin Naqshband Xoja Abdullaxolig G'ijduvoniyo huzurlariga borsalar, pirlari G'ijduvondan shu qishloqqa u zotni kuzatib kelar va har gal shu yerda xayr-xo'sh qilishar ekan...

G'ijduvoniyo milodiy 1103 yili tug'ilib, 1179 yili vafot etgan. Naqshband u kishidan naqd 215 yil keyin, ya'ni 1318 yili tug'ilib, 1389 yili vafot etgan-ku. Ular qanday bir-birlarining huzurlariga borib kelishadi?

Bu g'ayriilmiy versiya. Xalq asrlar mobaynida bu joyni "Xargo'sh" ataydi. Bu soxta etimologiya "xayrxush" so'zining talaffuz qilinishi jihatidan o'ziga o'xshash yoki yaqin bo'lmagan "xargo'sh"ga aylani qolganini ilmiy izohlab bera olmaydi. "Xargo'sh" atamasining tarixiyliigi hech qanday ortiqcha isbot talab qilmaydigan haqiqat. Bu nom o'sha hududning tabiiy, geografik, gidronimik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qo'yilgan.

Zarafshon daryosi hozirgi Navoiy viloyatining Qiziltepa tumani bilan Buxoro viloyatining Vobkent tumani chegarasidagi Duoba degan joyda

ikkiga bo'lingan. Shu yerdan to'g'riga oqqan suv "Shohrud", o'ngga qarab oqqan suv "Qorako'ldaryo" deyilgan. Ana shu Qorako'ldaryoning chap qirg'og'iga yaqin yerda Xargo'sh qishlog'i joylashgan.

Qadim-qadimdan har qanday daryoning ikki qirg'og'idagi ancha-muncha joy bo'sh qoldirilgan. Ya'ni, u yerga uy-joy solish, ekin ekish mumkin bo'lmagan. Chunki daryo to'lib-toshib oqqan mahallarda har qanday uy-joy va ekinzorni bosib ketadi. Daryoning ikki qirg'og'i odatda yul'g'uzor-u chimzoru tikanzorga aylangan. Mahalliy xalq bunday joylarni "adoq" der edi. Bu "obod, ya'ni yashaladigan, ekin ekiladigan joyning adog'i, ya'ni, oxiri", degan ma'noni anglatgan. Qorako'ldaryoning ikki qirg'og'idagi adoq to Amu-Buxoro kanali o'tkazilgan davr, ya'ni o'tgan asr 60-yillari o'rtalariga qadar boricha saqlangan edi. Keyin o'zlashtirilib, ekinzorlarga aylantirildi. Azoqlarda yovvoyi tabiat, jumladan, hayvonlar ko'payishi uchun juda qulay imkoniyat bor edi. Bu hududlarda yaqin-yaqinlarga shoqol, tovushqon, ya'ni yovvoyiy quyon va tustovuqlar juda-juda ko'p edi.

Taxmin qilish mumkinki, mazkur qishloqqa "Xargo'sh" deb nom qo'yilishining asosiy sababi shuki, bu yerda bir paytlar tovushqon juda ko'p bo'lgan. Tojik tilida tovushqon "xargo'sh" deyiladi.

Tovushqonning qulog'i katta-katta bo'lgani uchun xalq unga shu nomni bergan. Chunki "xar" so'zining bir ma'nosi "katta"ni anglatadi. Masalan, katta tosh "xarsang" deyiladi, "sang" "tosh" ma'nosini anglatadi, vassaning kattasini "xarvassa" deydishadi.

Xargo'sh qishlog'i 2018-yilgacha rasman shu nom bilan atalib kelgan edi. 2018 yildan boshlab unga "Paxtakor" nomi berildi, 2020 yil sentyabrda boshlab esa "Xayrxush" deb yana o'zgartirildi. Xargo'sh qishlog'i nomini "Xayrxush" nomiga o'zgartirish tarafdorlari tojikcha "xargo'sh" qo'shma so'zidagi "xar" omonimini o'zlaricha "eshak" deb tushunib, undan "eshakning qulog'i" ma'nosini chiqarishgan. Buni, tabiiyki, qishloq ahli uchun haqorat, deb hisoblashgan.

O'rni kelganda aytib o'taylikki, mumtoz o'zbek tilida "tovushqon"

so'zi ham, "xargo'sh" so'zi ham bir ma'noda ishlatilavergan. Buyuk Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostonidagi bir baytning o'zida ham unisini, ham bunisini ishlatadi:

Tovushqon uyqusi andin olib hush, Sog'inib dilbaridin xobi xargo'sh.

Xargo'sh – Buxoroning uzoq o'tmishga ega tarixiy qishloqlaridan. U sharif shahar atrofidagi muhim iqtisodiy va madaniy markazlardan hisoblangan. Eng muhimi, bu qishloqdan taniqli olimlar yetishib chiqqan. Manbalarda bu qishloq nomi qadimiy toponim sifatida ko'p uchraydi.

Jumladan, Xargo'sh X-XX asr tarixchi-geografarlari, Xatib al-Bag'dodiy, Abdulkarim as-Sam'oniyo kabi o'nlab muarrixlarning tarixiy asarlarida zikr etilgan.

1841-1842-yillari Chor Rossiyasi ofitseri Konstantin Butenyov boshchiligidagi missiya tarkibida Buxoro amirligiga safar qilgan rus sharqshunosi Nikolay Xanikov (1819–1878) esa o'zining 1843-yili nashr etilgan "Buxoro xonligi tavsifi" kitobida Buxoro atrofidagi Xargo'sh qishlog'ida har haftaning payshanba kunlari bozor bo'lishini ma'lum qilgan.

Bulardan tashqari, badiiy adabiyotda ham Buxoro atrofidagi Xargo'sh qishlog'i nomi eslatiladi. Jumladan, Buxoro diyorida yetishib chiqqan mashhur yozuvchi Sadridin Ayniyning "Sudxo'ming o'limi" qissasida asar qahramoni Qori Ishkambaning qarzdorlaridan pul undirilgach, tilmoch bilan sud ijrochisining Xargo'sh qishlog'ida ishlagan ham bitirib olish uchun o'sha yoqqa jo'naganliklari aytiladi.

Demak, tarix yozma shaklda qishloqning asl nomini tasdiqlab turibdi. Biz Buxoro viloyatining joy nomlarini qayd etish va tartibga solishga mutasaddi shaxslarni "Xayrxush qishlog'i" degan sun'iy nomdan voz kechib, bu joyni yana qaytadan "Xargo'sh qishlog'i" deb rasmiylashtirishlari zarur, deb o'ylaymiz.

Sultonmurod OLIM,
professor
Halim TO'RAYEV,
professor
Komiljon RAHIMOV,
professor

JAHON AYVONIDA

TRAMP XITOYDA

AQSH prezidenti Donald Tramp rasmiy tashrif bilan Xitoy poytaxtiga yetib keldi. Bu Amerika yetakchisining 2017-yildan buyon Pekinga amalga oshirgan ilk tashrifidir. O'shanda Tramp prezidentlik saylovlaridagi g'alabasidan so'ng ushbu mamlakatda mehmon bo'lgandi.



Donald Tramp va Xitoy rahbari Si Szinpin o'rtasidagi muzokaralar ikki kun davom etadi. Uchrashuvning diqqat markazida AQSH va Xitoy o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar bo'ladi. Ekspertlar ushbu muzokaralardan "keskin o'zgarishlar"ni kutmayapti.

YONILG'I BUTKUL TUGADI
Kuba energetika va konchilik vaziri Visente de la O 13-may kuni



mamlakatda dizel, mazut va xom neft zaxiralari umuman qolmaganini e'lon qildi. Bu haqda "BBC" xabar berdi.

AQSH tomonidan o'rnatilgan neft blokadasi tufayli poytaxt Gavanada so'nggi o'n yilliklardagi eng og'ir elektr uzilishlari kuzatilmogda.

MITING

ISHTIROKCHILARIGA JAZO
Rossiya Davlat Dumasi xorijliklar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni mamlakatdan chiqarib yuborishni ko'zda tutuvchi qonun loyihisini birinchi o'qishda qabul qildi.

Unga ko'ra, ruxsat etilmagan mitinglarda qatnashgan hamda



Rossiya armiyasini obro'sizlantirgan xorijliklar deportatsiya qilinadi. Bu haqda "Deutsche Welle" xabar berdi.

Rossiya hukumati ushbu qonun loyihisini mart oyida taklif qilgan edi.

VIZASIZ MUDDAT QISQARISHI MUMKIN

Tailand Tashqi ishlar vazirligi chet ellik sayyohlar uchun vizasiz qolish muddatini 60 kundan 30 kungacha qisqartirish rejasini tasdiqlash



uchun Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadi, deb yozmogda "Reuters".

Hukumat 2024-yil iyul oyidan boshlab 93 ta davlat, shu jumladan, O'zbekiston sayyohlari uchun vizasiz davrni belgilagandi.

QAMCHIBEK TASHIYEV ISHI

Qirg'iziston Bosh prokuraturasi Qamchibek Tashiyevga nisbatan qo'zg'atilgan jinoyat ishi bo'yicha ayblov dalolatnomasini tasdiqladi.



"Kaktus.media" xabariga ko'ra, bu haqda advokat Ikromidin Aytqulov ijtimoiy tarmoqlardagi sahifasida ma'lum qildi.

Himoyachining so'zlariga ko'ra, Tashiyev hokimiyatni zo'rvonlik bilan egallashga tayyorgarlik ko'rish va mansab mavqeyini suiste'mol qilishda ayblanmogda. Ish mazmunan

ko'rib chiqish uchun Bishkekning Pervomayskiy tuman sudiga yuborilgan. Ish bo'yicha jami sakkiz nafar ayblanuvchi, jumladan, Tashiyevning o'zi ham bor.

MAKTABDA TELEFON ISHLATISH TAQIQLANADI
Qozog'iston maktablarida dars vaqtida, hattoki tanaffuslarda ham smartfonlardan foydalanish taqiqlanishi mumkin.



Pedagog maqomi va ta'lim masalalariga oid qonun loyihasi mamlakat parlamenti tomonidan ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

YANA BIR TAQIQ

Moskvaga qilingan havo hujumlari oqibatlarini rasm va videoga olish, ular haqida matn yozish taqiqlandi. Bu haqda shahar merligiga tayanib "Interfaks" xabar berdi.

Tegishli qaror Antiterror komissiyasi tomonidan "feyk xabarlar tarqalishining oldini olish" maqsadida qabul qilingan. Cheklovlar alohida qaror chiqarilgunga qadar amal qiladi. Taqiq Rossiya Mudofaa vazirligi, Moskva meri va shahar hukumati rasmiy saytlarida e'lon qilingan ma'lumotlarga tatbiq etilmaydi.



MOZIYDAN SADO

O'tgan asrning 60-yillari adog'ida taniqli adabiyotshunos Matyoqub Qo'shjonovni xorazmlik bir kishi yo'qlab keladi. Yupungina kiyingan, ko'zlarida qayg'u alomatlari muhrlanib qolgan bu odam iymانبgina o'zini Qurbon Qutlimurotov deb tanishtiradi va tashrifidan maqsadini aytishdan oldin eski matoga o'ralgan bir necha qalin daftarlarni olimning oldiga qo'yadi.

Olim muqovasi titilib ketgan daftarlardan birini ochib, "Qurbon" (roman) degan so'zlarni o'qiydi va qarshisida mung'ayib o'tirgan odamga savol nazari bilan qaraydi. "Men Matyoqub og'ani 1942-yilda Xarkov shahridagi zavodda ko'rganman. U bilan bir haftacha birga bo'ldik. Uning yelkasida "S.Yu" yozuvli belgi tushirilgan kiyim bor edi. "S.Yu" belgisi "sovet ittifoqi" degani. Bu tamg'ali kiyim kiyishga majbur qilingan asirlarning ahvoli juda og'ir edi. Avaylab-asrab kelayotgan shu daftarlarni o'shanda menga bergandi..."

Taniqli adabiyotshunos olim noqoh tashrif buyurgan odam taqdim qilgan qo'lyozmalar muallifi boshiga tushgan qismatni darrov anglaydi (akademik olimning o'zi ham dahshatli urushda qatnashgan edi) va atrofiga bir qarab qo'ygach: "Bularni hozir chop qilib bo'lmaydi. Mayli, o'qib ko'raman... vaqti kelar", deya oladi, xolos. Olim Matyoqub Abdullayevning urushdan oldin nashrdan chiqqan ilk romanini o'qigandini ham... Xo'sh, urushda va asirlikda bir emas, ikkita roman qoralagan, ammo ikki asarini ham nihoyalay olmagan, bor asarlari haliyam nashr yuzini ko'rmagan yozuvchi kim edi?

Ichan qal'a deyilganda, darrov ko'z oldimizga qadim Xiva keladi. Yosh jihatidan Xivadan ulug'roq bo'lgan Hazoraspeda ham Ichan qal'a bo'lgani, borligini eshitganmisiz? O'tgan asrning boshlarida - toki o'ttizinchi yillarga do'vr el orasida Sulaymon qal'a, Dev solgan qal'a nomlari bilan mashhur, bozirda ham xabarolari osmonga bo'y cho'zib turgan qadim qal'aning Ichan va Dishan qal'a atalmish mavzolari bo'lgan. Qal'adagi minoralar, osmono'par madrasalarni chor hukumati bosqini vaqtida atay to'pdan olib, yakson qilishgan. Aynan Ichan qal'a qismida yashovchi hunarmand Matyoqub aka 1910-yilda tug'ilgan o'g'liga Muhammad Yoqub degan ism tanlaydi. Keyinchalik sovet mafkurasi ta'sirida bu ism ham "ixchamlashib", Matyoqub ko'rinishini olgan.

Matyoqub eski maktabda savodini chiqaradi, so'ng jaddidlar ochgan yangicha maktabda o'qiydi. Hali maktabda o'qib yurgan kezarida adabiyotga qiziqadi, kichik-kichik hikoyalar yozishni mashq qiladi. Uning ilk mashqlari o'sha davrdagi vaqtli matbuotda chop qilinadi, o'zi ham bir muddat vohada chop qilina boshlagan "Inqilob quyoshi" gazetasida adabiy xodim bo'lib ishlaydi. U o'ziga Ravshan taxallusini tanlagani ham bejiz emasdi. Ravshan - yorug'lik kelmo'gi, yurti ozod bo'lishini ichichidan istagani ifodasi bu! Jadidlar harakati ta'sirida yozgan ilk asarlari ma'rifat-ma'naviyat mavzularida bo'lib, ularda yoshlarni ilm olishga chorlov,



eskilik sarqitlariga qarshi kurash va, albatta, ozodlik o'oyalari ochiq va yashirin tarzda - qahramonlarining xatti-harakatlari, o'zaro gurunglarida anglashiladi.

1924-yilda qadim vohada boshlangan ozodlik harakatini bostirish uchun sovetlar Shaydakov qo'mondonligi ostida katta qo'shin yuboradi. Zamonaviy qurollarga ega qo'shin vohani "bosmachilardan tozalash"ni aynan Hazoraspeda boshlaydi. Qal'a biqinidagi paxta tozalash zavodiga o'r'nashib olgan vatanparvar yigitlar ko'psonli dushmanga bir haftacha qattiq qarshilik ko'rsatadi. Ichan qal'adagi pastakina uyiga bekinib olgan Matyoqub aka farzandlari to'xtovsiz o'q tovushlaridan qo'rqmasin, deb ularning quloqlariga paxta tiqib qo'yadi...

O'tgan asrning yigirmanchi yillari ikkinchi yarmi va o'ttizinchi yillarida buyuk jadid Abdulla Qodiriy yaratgan "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlari shu qadar mashhur bo'lganki, uni qo'ni-qo'shnilar tunlari chiroq yorug'ida savodli insonlarga tonggacha o'qitib, hayratga tushgan, ko'zlariga yosh kelgan. Hatto buyuk yozuvchi qatag'onga uchrab, asarlari taqitlangan zamonlarda ham bu kitoblarni kaftda cho'g'ni tutganday asragan insonlar bo'lgan.

Milliy adabiyotimizda yaratilgan ilk egizak romandan ilhomlangan Matyoqub Abdullayev ham roman qoralash havasiga tushadi. Uning "Qilich" nomli ilk romani chop qilinib, adabiy doiralarda ancha bahsu-munozaralarga sabab bo'ladi. U o'sha davrda rusum bo'lgan, sovet mafkurasiga mos "kurashadi ikki to'lqin" mavzusida emas, harbiylar hayotidan roman yozishni orzu qilardi. Bu o'sha bolalikda bir hafta quloqlariga eshitilgan "qars"illagan o'q tovushlari ta'siridandir, balki - qaydam.

1937-yillar qatag'onini, qancha-qancha hammaslarklari tunlari olib ketilib, taqdirleri ne kechganidan bexabar oila a'zolari hukumat idoralari eshiklarida sarson-sargardon bo'lganini o'z ko'zi bilan ko'rgan, yaqinlari boshiga tushgan musibatni aritish umidida ularga ariza-yu iltimosnoma yozib bergan va o'z boshida ham qora bulutlar paydo bo'lishini anglagan 29 yashar yigit harbiy xizmatga borish haqida ko'ngilli bo'lib ariza yozadi. Bu bilan u o'z boshini omon saqlamoq, nasib qilsa romanlar yozishni orzu qilgandir,

BANDASINING BANDALARI

ayni shu davrda "M.Ravshan" taxallusi bilan "Qurbon" romanini tamomlagan va "Baliqchi qiz" dramasi ustida ishlagan.

Nihoyat, urush tugaydi. O'z ixtiyori bilan asir tushmagan, sovet dohiylari yo'l qo'ygan xatolar, qo'mondonlik tarkibidagi noshud harbiylar xiyonati tufayli to'rt yildan ortiq yot o'kalarida asirlikda bo'lgan Matyoqub Abdullayev oila bag'riga qaytadi. Ammo ko'p o'tmay GPU xodimlari uni hibsga oladi va Olmaota shahrida sud qilib, yigirma besh yil qamoq jazosi berib, Sibirga jo'natadi. Matyoqub Abdullayev taqdirga tan beradi, boshqa qismatdoshlari qatorida Sibir o'rmonlarida og'ir sharoitlarda og'och kesishga mahkum bo'ladi. Kun bo'yi og'ir mehnatdan charchagan qismatdoshlari uyquga ketib, vaqt va makonni bir zum unutishga uringan kezlarda, u "Qon" nomli yangi romani qoralamalari ustida ishlagan o'zida kuch topadi.

Afsuski, Matyoqub Abdullayevning qachonlardir bu asarlarini chop qilish orzulari amalga oshmaydi. Tizza bo'yi qorga burkangan o'rmonda yog'och kesib yurishganida, to'satdan boshqa bir mahbus kesgan ulkan daraxt uning ustiga qulaydi... U hibsonalardan biridagi omonat qabristonga dafn qilinadi. Tunlari qoralagan qo'lyozmalari nazoratchilar ko'liga tushadi...

Uning taqirdoshi, taniqli shoir Xushnud Abdulla (Otaboy Abdullayev) o'tgan asrning 30-yillarida vohadan yetishib chiqayotgan yosh ijodkorlarning eng iqtidorlisi hisoblangan. O'n uch yoshidan boshlab yozgan she'rlari vaqtli matbuotda muntazam e'lon qilinib, adabiy doiralarda nazariga tushadi. 1937-yilda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi o'tkazgan yosh ijodkorlar anjumanida she'rlar to'plami muhokama qilinib, nashriyotga chop qilish uchun tavsiya etiladi. Ammo frontga ko'ngilli bo'lib ketgan Xushnud Abdulla taqdirga general Vlasov armiyasi safida xizmat qilish yozilgan ekanki, 1942-yilda bu armiya salkam to'rt yuz ming askar bilan dushmanga to'liq asir tushadi. Xushnud Abdullayevning yurt, sharqona qadriyatlar, insoniy munosabatlar mavzularidagi she'rlari Berlinda chop qilingan "Milliy adabiyot" jurnalida muntazam bosilib turgan. Uning lirik she'rlardan iborat "Yurak to'lqinlari" nomli ilk to'plami ham Berlinda nashr qilingan.

Keyinchalik Xushnud Abdullayev ham Matyoqub Abdullayev kabi 1945-yilda 25 yillik qamoq jazosiga hukm qilinib, Sibirga yuboriladi. Kuni bitmagdan ekan, 1954-yilda Stalin vafotidan so'ng qamoqdan ozod qilinib, Xorazmga qaytadi. U yurtga qaytgach, ko'p yillar davomida Urganch shahar madaniyat uyida bo'lim mudiri, viloyat teatrida adabiy emakdosh vazifalarida ishlaydi. Uning g'azallari va lirik she'rlari xonandalardan tomonidan qo'shiq qilib kuylanadi va hamon kuylanmoqda. Shuningdek, u teatrdan ishlayotgan vaqtda bir qancha sahna asarlari yaratadi. Ammo...

Vohalik taniqli shoir Matnazar Abdulhakim bir gal afsus bilan shunday degandi: "1980-yilda KGBning viloyat boshqarmasiga chaqirib, qo'limga bir xatild topshirib, "Shunga xulosa yozib bering", deyishdi. Xatjildda ikkita drama qo'lyozmasi bor ekan. Ularni o'qib chiqdim va ayrim juz'iy kamchiliklarini ko'rsatib, "Bu dramalar sahnalashtirilsa, yoshlarni o'qib-axloq ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi", degan mazmunda xulosa yozib berdim. Xatjildda muallif ismi-sharifi ko'rsatilmagandi. Musiqali drama qahramonlari kuylaydigan ariyalar qadim she'riyatimiz an'alariga mos va xalqona yozilgandi. Ammo negadir bu asarlar sahnalashtirilmadi. Oradan o'n yillar o'tgach, tasodifan Xushnud Abdulla domlani ziyorat qilgani borganimda, u kishi: "Matnazar, rahmat senga ijobiy xulosang uchun!" deb qoldi. Bilsam, men ijodiy xulosa bergan drama muallifi Xushnud Abdulla ekan. Nega bu dramalar sahnaga qo'yilmagani haqidagi savolimga u kishi: "Men bir umr qora ro'yxatga kirgan odamman. She'rlarimni gazetalar ming hadik bilan bosishadi. She'riy to'plamim yigirma yilki nashriyotda yotibdi", deb javob berdi. Bu ijodkorning bor aybi nopok tuzumda bevaqt tug'ilgani edi..."

Xushnud Abdulla 1995-yili vafot etdi. Yurtimiz mustaqillikka erishgach, vaqtli matbuotda istiqlolni ulug'lovchi bir qancha she'rlari chop qilinadi. Qizig'i, o'sha she'rlari yarim asr ilgari yozilgan, Berlinda nashr qilingan yagona to'plamidan joy olgan she'rlari edi.

Darvoqe, shoir iymانبgina tahriyatlariga taqdim etgan ayrim she'rlari boshqa mualliflar nomidan ham e'lon qilingan. Hatto qadim voha haqidagi she'rini ko'pchilik hali hamon o'zga muallif qalamiga mansub, deb biladi. Qachonlardir "xalq dushmani" tamg'asi urilgan shoir o'z asarlari boshqa kimsalar tomonidan o'g'irlanganida, qo'l siltashdan boshqa chora topa olmagan. "Mayli, kimning nomidan bo'lsa-da, chiqdiku. Adabiyot muxlislariga ma'qul kelsa bo'ldi-da", deb ovungan u inson...

Insonning qachon, qay makonda tug'ilishi o'ziga bog'liq emas. O'z taqdirini o'zi yaratishga urinishi manfur siyosat tomonidan cheklanishi, hatto jismonan yo'q qilinishi ham mumkin. Shirin orzulari armonlarga aylanib, tarix o'yingohlarida ko'mib tashlangan bu insonlar ruhlariga tasalli berishga yaraymiz, xolos.

Yigirmanchi asrning eng qonli fojiasi - ikki siyosiy kuch o'zaro kelisha olmay keltirib chiqargan dahshatli urush tugaganiga sakson yildan oshdi. Yurtimizda bevosita urushda ishtirok etgan insonlar sanoqli qolgan. O'sha davr qiyinchiliklarini o'z boshidan o'tkazgan, urush ortida g'alaba uchun tun-un kun mehnat qilgan insonlar yoshi ham to'qsonga borib qolgan. Lekin urush qoldirmish asoratlar haliyam zahriini yo'qotmagan. Yuqorida hikoya qilingan ikki inson taqdiri bunga yaqqol misoldir.

Ro'zimboy HASAN

TARIX VA TAQDIR

Jadid davri hikoyachiligini o'rganar ekanmiz, Mahmud Suboy nomiga duch kelamiz. U kim edi?

Professor Shodmon Hayitov va Kamol Rahmonovning "Mahmud Suboh (Subay) kim edi?" maqolasida yozilishicha, Mahmud Suboy "Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil topgan dastlabki yillarda Maorif nozirligining umumiy ishlar bo'limi mudiri lavozimiga taklif etilgan". U rus, arab, fors va turkiy tillarni puxta bilgan.

Qozon ma'rifiy va adabiy muhitida voyaga yetgan Mahmud Suboy 1921-1923-yillarda "Buxoro axbori" gazetasida ilmiy-ma'rifiy yo'nalishdagi maqolalari bilan faol ishtirok etgan. Uning "Yuzni yuvmoq bilan oqartirmoq kabi qalbnida o'qimoq bilan oqartirmoq kerak", "Maktab faqat xat savodsizlikni bitiraturg'on bir



hunarxona emasdur. Maktab haqiqiy ma'nosi ila inson chiqaraturg'on oliy maqsadli buyuk bir muassasadir"

singari teran fikrlari e'tirof etiladi. 1921-yilda Buxoro hukumati tomonidan o'zbek tilini davlat tili

MAHMUD SUBOY KIM?

sifatida qo'llash to'g'risida maxsus qonun qabul qilingan. Unga ko'ra hukumat idoralari kim o'zbek tilida ish tutmasa, jarimaga tortilishi belgilangan. Ammo qonun ijrosi, bir yil o'tsa-da, paysalga solinayotganiga, hujjatlarining yarmi rus tilida yuritilayotganiga Mahmud Suboy jim qarab tura olmagan. "Buxoro axbori" gazetasining 1922-yil 2-noyabr sonida e'lon qilingan "Til masalasi" maqolasida til sofligini saqlash to'g'risida fikr-mulohazalarini taqdim qilib, "Hukumat tili shu hukumatning xo'jasi bo'lg'on xalqning ona tilidir. Shu til bilan uning adabiyoti negizlangan, qalbining teran yeridan o'rin topg'ondur", deb ta'kidlagan.

Qahramonimiz iste'dodli yozuvchi hamdir. Buxoroda yashab, ishlagan

kezarida uning "Abuvarajaxon", "Hikoyalar", "Kichik hikoyalar" kitoblari chop etiladi. U ilmiy-publististik, badiiy asarlar yozish bilan birga, rus, turk, arab, fors tilida yozilgan asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Buxoro hukumati tugatilganidan keyin Samarqand va Toshkentda ishlab, "Bilim o'chog'i", "Maorif va o'qitg'uvchi" kabi jurnallarda o'nlab maqola, badiialar e'lon qilgan. 1925-1928-yillarda "Maorif va o'qitg'uchi" jurnalida "Omonat", "Shifoli suv", "Tilanchi", "Turmush va kelin", "Turmush va o'lim", "Chin va yolg'on", "Asosli asos", "Inqilob manzaralari", "O'zgarish vaqtida", "25-oktyabr", "Tarixiy kunlar" kabi hikoyalari e'lon qilingan.

Muallifning tavalludi va vafoti haqida ma'lumotlar saqlanib qolmagan.

Xoliyor SAFAROV

AZIZ XOTIRA



QATAG'ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Aminjon Ziyovuddinov - 1890-yili Buxoro shahrida tug'ilgan. "Milliy ittihad" tashkilotining topshirig'iga ko'ra qishloqlardagi a'zolar bilan aloqa bog'lash uchun borganlikda, ular bilan yig'ilishlar o'tkazib, tashkilot rahbarlari ko'rsatmalarini yetkazganlikda ayblangan. Hibsga olingan vaqtda ilmiy xodim bo'lgan. 5247-sonli ish bo'yicha 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 21-avgustdan hisoblangan.

Mulla Mamajon Tojiboyev - 1880-yili Marg'ilon shahrida tug'ilgan. Hibsga olingunga qadar imomlik bilan mashg'ul bo'lgan. "Sho'royi Islom" tashkiloti a'zosi sifatida aksilinqilobiy targ'ibot bilan doimiy ravishda shug'ullangan. Farg'ona vodiysi bo'yicha aksilinqilobchi, isyonchilar bilan yaqindan aloqada bo'lganlikda ayblanib, otuvga hukm etilgan. Unga tegishli mol-mulk musodara qilingan.

Sharif Yusufboyev - 1870-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. Hibsga olingunga qadar nafaqada bo'lgan. Nafaqagacha savdogarlik qilgan. Arxiv hujjatlarida "Sho'royi Islom" tashkiloti a'zosi sifatida qayd etilgan. 1927-yili saylov huquqidan mahrum qilingan. 1934-yildan 1937-yil 1-oktyabrgacha Kuybishev nomli mahalla masjidida imomlik qilgan. O'zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligining 1938-yil 5-apreldagi qaroriga binoan "Milliy ittihad" tashkiloti a'zosi bo'lgani uchun 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. 1962-yil 20-iyunda reabilitatsiya qilingan.

Muzaffar Maqsudov - 1895-yili Buxoro shahrida tug'ilgan. "Milliy ittihad" tashkilotining Buxoro filiali a'zosi bo'lgan. Fayzulla Xo'jayev va boshqalar bilan yaqin aloqada bo'lganlikda ayblanib, 4798-sonli ish bo'yicha 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 25-avgustdan hisoblangan.

Ubaydullo Sulaymonov - 1884-yili Andijon shahrida tug'ilgan. Sobiq mirobboshi. 1929-yil 6-noyabrda "Milliy istiqol" tashkilotining a'zosi o'lroq O'zSSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 10-bandi bilan ayblanib, hibsga olingan. 1931-yil 25-apreldagi sud kollegiyasi hukmi asosida 10 yillik qamoq jazosi bilan konslagerga yuborilgan.

Abdurahim To'xtaboyev - 1898-yili Namangan rayonida tug'ilgan. To'raqo'r-g'ondagi rus-tuzem maktabida o'qigan. 1918-yildan 1923-yilgacha RKP(b) a'zosi bo'lgan. Aksilinqilobiy targ'ibot olib borganlikda, turli mish-mishlar tarqatganlikda, "Qizil O'zbekiston" gazetasida yozuvchi Cho'lpon va Julqunboyning maqolalarini tarqatganlikda, "Sovet hukumati o'zbek ziyolilarining eng yaxshilarini qamoqqa olmoqda va mustamlakachilik siyosatini yurgizmoqda, sovet lavozimlariga o'zbek xalqini ezayotgan ruslardan qo'yilmoqda", deya tashviqot qilganlikda ayblangan.

"Milliy ittihad" tashkiloti a'zolari Mo'min Rafiqov, Inom Nizomboev va boshqalar bilan yaqin aloqada bo'lgani, jadidlik harakatida faol ishtirok etgani, Fayzulla Xo'jayevni maqtatgani, uyidan "O'tkan kunlar" kitobi topilgani uchun 1937-yil 14-noyabrda hibsga olingan. Bu vaqtda tayyorlov punktida ishlayotgan Abdurahim To'xtaboyev quloq, jadidlik harakati ishtirokchisi, "Milliy ittihad"ning sobiq a'zosi sifatida qoralangan. Shundan so'ng u O'zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi bilan ayblanib, 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 17-noyabrdan hisoblangan. 1958-yil 28-fevralda reabilitatsiya qilingan.

Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori

Nigoraxon AKBAROVA,
tadqiqotchi

(Davomi kelgusi sonda).



YANGI NASHR

“AYTAY YURAGIMDA BORINI”

O'zbekiston xalq shoiri Husniddin Sharipovning Yozuvchilar uyushmasi homiyligida “Tanlangan asarlar” seriyasida nashr etilgan yangi kitobida shunday satr bor: “Do'stlar, aytay yuragimda borini”. Darhaqiqat, ushbu salmoqli to'plam bilan tanishgan o'quvchi unda muallif yuragida bor tuyg'ularini samimiy ifoda etganiga amin bo'ladi.



Xususan, ko'pchilikka yod bo'lib ketgan she'rlar, qo'shiqqa aylangan misralar, o'ziga xos uslubda bitilgan dostonlar va pyesalarda adibning ko'ngil mavjlari namoyon bo'lib turadi.

Kitobning alohida e'tiborga molik yana bir jihati bor. Unda muallif “O'n asr osha” degan eskartma bilan hali ko'pchiligi-mizga noma'lum bo'lgan mumtoz shoirlarimizning arab tilida bitilgan she'rlarini tarjima qilib, kitobxonlarga taqdim etadi. Xususan, Abu Tolib Abdusallom Ma'muniy, Abu Bakr Xorazmiy, Abu Said Shabibi singari yigirmadan ziyod shoirning biz ko'nikkan mumtoz asarlardan boshqacharoq uslubda bitilgan she'rlari adabiyot ixlosmandlarini befarq qoldirmaydi, deb o'ylaymiz.

Nigina ISKANDAROVA

JAJJI ADABIYOT

Bolalikda bobo va buvilarimizdan eshitgan ertaklarning nash'u namosi yodingizdadir? Xalqning mulki bo'lmish afsona va rivoyatlar bola qalbimizda hayrat uyg'otishi bilan birga, ezigulik bilan yovuzlik o'rtasidagi chegarani chizib ko'rsatgan, odamiylik ruhida tarbiyat qilgan ekan. Barkamol avlodni voyaga yetkazishda ta'lim va tarbiyaning beqiyos o'rnini bugun o'zimiz ham teran tushunib yetdik. Jadid bobolarning yangi usul maktablarini ochishda, o'qish kitoblarini nashr etishda bejiz kuyib-pishmaganini baholi-qudrat anglab turibmiz.

Xabaringiz bo'lsa, o'tgan yil may oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bolalar uchun mo'ljallangan milliy kontentlar yaratish va ularni ommalash-tirishni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori qabul qilingan. Shunga ko'ra, bolalar

uchun kontent yaratuvchi tadbirkor va ijodkorlarga ham bir qator soliq imtiyozlari va preferensiyalar taqdim etilyapti. Shukrki, oramizda jaddilarning munosib izdoshlari, uyg'qqalb egalari yashayotir. Ta'lim resurslarini yaratish bo'yicha tajribali mutaxassis, “Erkatoy” jurnalining asoschisi Nodirbek Yusupovning maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarga mo'ljallangan turkum kitoblar nashr etgani so'zimizning isbotidir.

“Erkatoy alifbo”, “Erkatoy alifbo 2”, “Erkatoy english” to'plamlari sodda til va tushunarli uslubda yozilgan bo'lib, bolaning dunyoni anglashi va erta savod chiqarishiga ko'maklashadi, chet tili haqida birlamchi tushuncha beradi. Shuningdek, ushbu rang-barang kitoblardan she'rlar, ertaklar, matal va topishmoqlarning o'rin olgani ham quvonarli hol.

Bilasiz, yangi avlodning uquvi tez, zehni o'tkir. Texnokratiya davrida ko'z ochgan bolalarni “xo'rozqand” bilan ovutib bo'lmaydi. “Bolani maktab o'qitadi” degan loqayd qarash, “Eti sizniki, suyangi bizniki” qabilidagi gaplar ham allaqachon eskirdi. Zamonaviy ta'lim ustoz bilan birga ota-onalardan birdek fidoyilik talab etadi. Farzandlarimiz aqli ravshan, xulqi go'zal bo'lib ulg'ayishi, uchqur zamonning ilg'or safarida bo'lishi uchun zarur sharoit yaratish, kerakli adabiyotlardan bahramand qilish siz-u bizdek kattalar uchun ertangi kunning g'amini yeganimiz bo'ladi.

Jamoliddin BADALOV

HAJV

Ha, meni ko'rsang, tanga topgan tentakday iljayasan, Sattor Surob? Yo birorta yoshlikdagi hunarlarimdan ag'da-bag'da eshitganing bormi? Ularni barigayam ishonaverma, ustozing Usta Gulmat aytganday, o'tmishimning yarmi ertak, yarmi mubolag'a...

Ko'zing erkak quyonnigiga o'xshab qontalash turipti, quturib-puturib qoganing yo'qmi? Kelinim tinchmi? Nabodosisga xo'roz urishtirib, ulgurji dov ko'targaning yo'qmi? Ha, qo'ltig'imdagimi? Rostanam erta kunda ko'zdan qopsan sen bola. To'p, ha, sendaqa shahar ko'rganlar ko'ptok deydi. Qayoqqa bo'lardi, guzarga, to'p tepganida! Hech zamonda odamzod to'p qo'tiqqlab qaynotasinikiga mehmondorchilikka borganini ko'rganmisan? He, mosov! Bahamav, tanijoning sog' emas sen bolani! Qo'qonga o'tib, Qobil tabibga bir ko'rinish, et-betingni g'ijimlatib ko'r, zora-mora...

O'zi, nimaga ko'pchilik do'xtir qolib tabibga qatnaydi? O'ylab ko'rganmisan? Bo'pti, sen o'ylab tur, men bo'gan gapni aytaman. Tunov Jamol bo'g'irsoqni Misri “Sharmanda Shayx”ga kuzatib, Baqachorsidagi “quyma piva”da picha salqinlashib qopmiz. Zarurat vajidan tahoratni butlab olay, degan ezgu niyatda Bachqirariqdan “pirim, madad” deb igriganimni bilaman, narigi qirg'oqqa yumshoq qo'ndim-u, chap tizzamdan “chpoq” deganga o'xshagan to'mtoq tovush chiqti. Ha, tirjayma, aniq tizzamdan chiqti. Yo'q, og'riq yo'g'idi. Savoling haligi tabibnikiga o'xshab ketdi: “Bormi og'riq?” Qisqasi, uyga qaytib, so'rida picha uzum g'o'rasini chamalab yotsam, oldin jimillab, keyin simillab og'rib qoldi-yu. O'tiraman, turaman, yonboshlayman, dumalayman, bir xil simillaydi qistalag'ing. Xotin atrofimda birinchi marta arqonga

BOSHIDAN O'TKAZGAN TABIB



tushgan echkiday aylanadi. Bir mahal tizza janavar chala pishgan Yusup pamildoriga o'xshab bardamalab berdi. Qo'lida qo'ng'irtop tuxum, xotin qaqag'laydi: “Mana, turkana dori, sarig'iga bir kap tuz qo'shib surib, tang'ib qo'yay, sen ko'r, men ko'r bo'p ketasiz, enamdan qolgan em” deydi. Men xo'rozlanib, bor enangni em deb, tikka Ultarmaga jo'nadim. Vey, sen bolada kalla-palla bormi? Tizza zirqillab turipti dedim-u, piyada yurib bo'ladimi? Vali o'risni shaytonaravasiga shoti bo'lib yotvoldim. Qisqasi, o'ris meni nos kaplab tupurgunimcha rangli pufakchalardan “Shirin jonim” deb bejalgan xususiy do'xtirxonaga ag'darib ketdi. Endi suhbatimizni eshit:

– Qayeringiz og'riyapti?

– Tizzam.

– Iya-ya-ya! Buni tezda kesish kerak. Yaxshiyam vaqtida kepsiz. Agar besh minut kech qolsangiz, Yangiqo'rg'onidan qo'tiqqtayog qidirishga to'g'ri kelardi.

– Buni rengen-pengen qimaysizmi?

– Chiroq yo'q. Lekin bizzi ko'zimizam rengen bo'p ketgan.

– Hech yo'q ushlab ham ko'rmadingiz-u...

– Nima balo siz bu yerga ushlatgani kelganmisiz yo davolanishgami? Lazer bilan shunday kesamiz, ziyam qomaydi, ikki soatdan keyin futbol o'ynaydigan bo'lasiz.

– Xizmat haqi qanaqa?

– Istarsi issiq yigit ekansiz, sizga o'n milyon.

TALQIN



HOJI BOBONING TAKYAXONASI

Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romani o'zbek adabiyoti uchun qanchalik qadri bo'lsa, G'afur G'ulomning “Shum bola” qissasi ham shunchalar sevimli. Ma'lumki, ushbu asarda 1900-yillar boshidagi Toshkent shahri va uning atrofidagi ijtimoiy hayot tarzi qiziqarli tilda hikoya qilinadi. Ayniqsa, Hoji boboning takyaxonasiga oid qismda Birinchi jahon urushi va afsonaviy Abo Muslim jangnomalari birga qiyoslanadi. Jadidlar olib borayotgan ishlar haqida ham gap boradi: “Bozorda har xil gaplar eshitdim. Donni narxi osharmush!”

Gap shundaki, o'sha davrda Toshkentda, ayniqsa, Chorsu bozorida jaddilar Farg'ona va Toshkentda chiqqan gazetalarini odamlarga tarqatgan. Boshlanishida tazyiqqa olinmagan uchun jaddilar bayroq ko'tarib, yana arabcha imlodagi alvoni ikki tayoqqa tortganlaricha bozorning gavjum joyiga besh-olti nafar bo'lib kelib, xalqqa murojaat qilgan. O'z rejalarini aytib, yangi chiqqan gazetalarini targ'ib qilgan, ularni bepul tarqatgan.

Bu orada gazetalarining yangi sonlarini tarqatishda yana avvalgidek namoyishkorlik hukmron bo'lsa-da, mirshablar gazetalarini tortib ola boshlaydi: “Bizga shunaqa ko'rsatma berilgan!” Mutaassiblar Toshkentdagi Oqposhsho rezidensiyasiga ariza yozib va og'zaki ma'lumot yetkazib, jaddilarning ularga

tug'diradigan xavfidan ogohlantirgan: “Men senga siyosatga aralashma demaganmidim!”

Hoji boboning takyaxonasi mijozlari o'sha davrning olaquroq odamlaridan iborat. Bu joy chilim tortiladigan, mijozlarga afg'on qoradorisi pullanadigan maxfiy “piron” edi. Hoji bobo Qoravoyni ko'chadan bozorlik qilib kelishga jo'natayotganda tayinlaydi: “Mabodo, biror tanishingni ko'rib qolsang, hargiz bu yerda yashayotganingni, bu yerda ko'rganlaringni aytm!”

Takyaxona tashqi olamdan uzilib qolgan. Bu yerga yig'iladiganlarning asosiy mavzusi mish-mishlar, ular eski davrga xos afsona-yu jangnomalarni o'qitib eshitganlaricha ko'z yoshi qiladi: “Ana buni mardi maydon deydi!” Chilimdan kayf qilgan “hindi sarrof” uzala tushganicha, “hi-hi”lab kuladi.

Yigirmanchi asr boshidagi Hoji boboning takyaxonasi “O'tkan kunlar” romanida Otabek ikkinchi bor uylanganidan so'ng, uyiga bormay yotib yuradigan karvonsaroy – choyxonaning ellik yildan keyingi, chor hukumati qo'li ostidagi yanada mahdud ko'rinishi edi.

Qoravoy bu yerda uzoq qolishida xayr ko'rmaydi va sahar chog'i hamma uxlayotganida takyaxonadan juftakni rostlaydi.

Buyam bir gap-da: ba'zi davralarda o'tirib, “dilkusho suhbat”larga quloq tutib, o'sha takyaxona esga tushadi negadir...

Olloyor BEGALIYEV

TILBILIM



“KURASHMOQ” va “KURAMOQ”



Dushmanga qarshi kurash, hayotda kurashib yashash va qorni kurash ma'nolari bor. Umuman, kurash so'zining kuramoq fe'lga aloqasi bormi? Yoki bular shunchaki shakldosh so'zlarmi? “Turkiy tillar etimologik lug'ati”da “kurash” so'zi kurash, bahs, jang ma'nolarini anglatishi haqida aytilgan. Uyg'ur tilida gura “belbog'li kurash” ma'nosini ifodalagan.

M.Resenen kurash so'zining ildizini “sindirish”, “talon-toroj qilish”, “qazish” ma'nolarida kura fe'lga taqaydi. Bu yerda faqat qazish ma'nosi kuramoq fe'lga nisbatan yaqinroq keladi.

Mahmud Koshg'ariyda kurashdi (kyrashdi) so'zi faqat bir ma'noda – qorni kurash ma'nosida izohlangan: Ol mshā qar kyrashdi. “Urushdi”, “janjallashdi” ma'nosini kerishdi (k'rishdi) so'zida ifodalangan: K'rish – urush va talashuda qarama-qarshi turish. Koshg'ariyda “kyr er” birikmasi “dovyurak, mag'rur yigit” ma'nosida keladi.

Eshqobil SHUKUR

Jadid
adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Bosh muharrir:
Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Mas'ul kotib: Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Otabek Bakirov

Adadi – 18 477

Shundan:

Kirill yozuvida – 7 005
Lotin yozuvida – 11 472

Media kuzatuvchilar – 84 035

Buyurtma: G – 540

Hajmi: 4 bosma taboq, A2.

Nashr ko'rsatkichi – 222.

Tashkilotlar uchun – 223.

1 2 3 4 5 66

Sahifalovchilar:

Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva



Manzillimiz:

Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:00

Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz

Muassislar:



O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA'NAVİYAT VA MA'RIFAT MARKAZI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO'LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHLDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI